

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIM VAZIRLIGI

A. QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

KAMOLOVA ShIRIN O'SAROVNA

**TALABALAR INTELLEKTUAL SALOHIYATINI
YUKSALTIRISHNING PEDAGOGIK - PSIXOLOGIK JIHATLARI.**

(o'quv-uslubiy qo'llanma)



JIZZAX – 2010

Mazkur o'quv qo'llanmada talabalarga talabalar intellektual salohiyatini yuksaltirishning pedagogik–psixologik jihatlarini joriy etish uchun tavsiya qilingan.

Ushbu o'quv–uslubiy qo'llanma oily o'quv yurtlari talabalari, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislar va mutasddilar, shuningdek, ota–onalar va muammoga qiziquvchi tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan.

Ma'sul muharrir:

pedagogika ta'lim xalqaro
fanlari akademiyasi akademigi,
texnika fanlari doktori,
professor To'raqulov X.A.

Taqrizchilar:

A. Qodiriy nomli Jizzax davlat
pedagogika instituti Pedagogika
kafedrasi mudiri, dotsent Kushvaktov N.X.

Jizzax viloyat PXQTMOI rektori,
psixologiya fanlari nomzodi,
dotsent Abdurasulov R.

Kirish

Pedagogika oliy o'quv yurtlaridagi psixologiya fanining yangi tuzulishi, uning mazmun mohiyati asosan barkamol avlodni taraqqiy ettirish, umumiy psixologiya fanlarini atroflicha o'rganish va bu soha fanidan o'quv qo'llanmalar nashr etishni talab qilmoqda. Shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, fan texnika taraqqiyotining shiddatli rivojlanishi, psixologiya fanining barcha tarmoqlarini tez taraqqiy etishiga olib keldi.

Psixologiya eng muhim ijtimoiy hamda oraliq fanlardan biri bo'lib, fan va texnika tobora taraqqiy etib borayotgan bugungi kunda psixologiya fanida jiddiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Kishilarning o'zaro munosabatlari, jamoani differentsiyalash, jamoada jipslik masalalar yuzasidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari turli xil jamoalarni birlashtirishni to'g'ri amalga oshirish orqali barkamol avlodni shakllantirish imkoniyatini beradi. Bo'lajak mutaxassislarni davlat ta'limi standarti asosida jahon ta'lim talabiga, bozor iqtisodiyotiga javob bera oladigan raqobatbardosh, dunyoqarashi keng qilib tarbiyalash davr talabi bo'lib qolmoqda. Buni to'laqonli amalga oshirish uchun oliy o'quv yurtlari talabalariga mo'ljallangan darsliklarning, o'quv qo'llanmalarining yangi avlodni yaratish zaruriyati yuzaga keldi.

Shuning uchun mazkur uslubiy qo'llanma birinchi navbatda psixologlarga, pedagogika institutining psixologiya va boshqa yo'nalishlarda ta'lim olayotgan talabalarga, ikkinchi navbatda maktab o'qituvchilariga va psixologiyaga oid bilimlarini oshirishga qiziqqan barcha kitobxonlarga mo'ljallanib tayyorlangan.

Darhaqiqat, mazkur uslubiy qo'llanma ayrim nuqsonlardan xoli bo'lmagan holda joylarda o'qituvchilar va o'quvchilarning fikr-mulohazalarini o'rganish natijasida ularning talab va istaklari asosida yaratildi. Qo'llanma asosan **психология** fanining asosiy tushuncha va atamaları, alloma va mutafakkirlarning fikrlaridan o'rin olgan. Uslubiy qo'llanma umumiy psixologiyaning jarayonlari bilan tanishtirishdan tashqari, o'quvchi tasavvurida maxsus bilimlarni ham kengaytirish va takkomillashtirish uchun imkon beradi.

Barcha izoh va ta'riflar atoliq psixologlarning jumladan P. I. Ivanov, M. Voxidov, K. Turg'unov, E. I. Ignatov, N. S. Lukin, M. D. Gromov, M.V. Gamezo, L. A. Petrovskiy, E. G'oziyev, V. Karimova, N. Boymurodov asarlaridan olingan va ba'zi bir terminlar adabiyoti ko'rsatilmagan holda izohlangan. Ushbu uslubiy qo'llanmada aynan borliqni aks ettirishda bilish jarayonlari, shakli hamda etmish savolga-etmish javobni talabalar ilmiy dunyoqarashini yuksaltirish masalalarini ko'rib chiqishni lozim topdik. Uslubiy qo'llanma talabalarga aynan psixologik bilimlar asoslarinigina bersa-da, umid qilamizki, ularni o'z atrofida ro'y berayotgan islohotlarga xolis baho berish, o'zi va o'zgalar ruhiyati sir-asrorlariga befarq bo'lmaslik, o'z layoqatlarini va dunyoqarashlarini shakllantirishning o'ziga xos jixatlaridan boxabar bo'lishiga ko'maklashadi.

INSON RUHIY OLAMI JARAYONLARINING MAZMUN-MOHIIYATI.

Yoshlarni «barkamol avlod» qilib voyaga etkazish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, bu borada bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan: 2010 yilning “Barkamol avlod” yili deb nomlanishini o'zi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazishga qaratilgan eng ezgu, eng ulug' maqsad yo'lida yana bir go'zal harakat, yana bir ezgu niyat, yana bir ezgu fikr eng asosiysi ezgu amal ishni yurgizishga qaratilgan qadam tashlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 27 yanvardagi qaroriga muvofiq “Barkamol avlod yili” davlat dasturi tasdiqlandi. Undan ko'zlangan maqsad mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, mamlakatimizning yigit-qizlarini XXI asr talablariga to'liq javob beradigan, har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga etkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli aniq yo'naltirilgan chora tadbirlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Jamiyatda ro'y berayotgan har qanday voqea va hodisalar kishilarning ruhiy olami bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda jamiyat “barkamol avlod”ni tarbiyalab voyaga etkazish talabini qo'ymoqda. Bunday talabni amalga oshirish uchun esa ota-ona, mahalla-pedagogik tizimni ishga tushirish taqoza qilinadi. Shundan kelib chiqqan holda bu murakkab ijtimoiy-ma'rifiy tizimni yurgizishda pedagogik-psixologik bilimlar muhim rol o'ynashini e'tirof etish lozim.

Pedagok o'z ona Vataniga, xalqiga astoydil xizmat qiladigan yoshlarni tarbiyalashda ularning individual xususiyatlarini inobatga olib, ta'lim tarbiya jarayonini boshqarib boradi.

Bugungi texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanishi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib, uning kuchini, aqlini, idrokini, salohiyatini, mustaqil tafakkurini, ruhiy hamda ma'naviy barkamolligini bevosita psixologiya fanini, taraqqiyoti rivojlanishi bilan uzviy bog'lanadi. Bugungi kun bozor iqtisodiyoti davrida kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabat, millatlararo hamdo'stlik masalalari, bilan bir qator insonlar o'z taqdiri to'g'risida qayg'urishi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi. Chunki odamlar juda qadimdan nafaqat o'zini qurshab turgan olamni balki, o'z-o'zini bilishga va o'rganishga ham qiziqqanlar.

Shuning uchun ham inson o'z taqdirini bilish bilan bir qatorda o'z-o'zini anglab etishga doimo harakat qilib kelganligi bois inson ruhyatiga oid bilimlar to'plangan.

Inson ruhyatiga oid bilimlar jamiyatda kishilar tomonidan sodir etilayotgan voqealar, hodisalar, sa'yi-harakatlarga turtki bo'luvchi omillarni o'rganishga xizmat qiladi.

Demak insonlar tomonidan yaratilayotgan yangiliklar, yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni, jamiyatdagi ilg'or g'oyalar va ta'limotlarni ta'lim-tarbiya, falsafa, huquq, nafosat, adabiyot shuningdek, o'quvchi yoshlarning kasbiy, ruhiy

kechinmalari, aqliy qobiliyati, idroki, xullas, insonparvar psixologiyaning barcha qonuniyatlari yoritib beriladi.

Psixologiyaning predmeti. “Psixologiya” so’zi ikkita grek so’zlaridan – “syche” – jon, ruh va “logos” – ta’limot, ilm so’zlaridan iborat bo’lib, an’anaviy ma’noda inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlar uning predmetini tashkil etadi.

Psixologiyaning predmeti konkret shaxs, uning jamiyatdagi xulq atvori va turli faoliyatlarning o’ziga xos tomonlaridir, – deb ta’riflash mumkin.

Psixologiya konkret fan sifatida psixik faoliyat qonuniyatlarini, uning ro’y berishi mexanizmlari va omillarini o’rganuvchi fandır.

Psixologiya fanining eng muhim sohalari rivojlana borayotgani munosabati bilan psixologiyadan har yili ko’p miqdorda maxsus adabiyotlar nashr etilmoqda. Bu adabiyotlarda o’zbek kitobxoni uchun yangi va tushunilishi qiyin bo’lgan termin va tushunchalar anchagina bor. Hozirgi vaqtda psixologik adabiyotlarga bo’lgan qiziqish nihoyatda katta.

Boshqacha qilib aytganda, psixologiyaning predmetini har birimizning tashqi olamni va o’z–o’zimizni bilishimizning asosida yotgan jarayonlar, hodisalar, holatlar va shakllangan xislatlar tashkil etadi. Psixologiya bo’yicha adabiyotlarda uning predmetini qisqacha qilib, psixikadir, deb ta’rif berishadi.

Psixika – bu inson ruhyatining shunday holatiki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni ham) ongli tarzda aks ettirishimizni, ya’ni bilishimiz, anglashimizni ta’minlaydi. Lekin bu qisqa ta’riflardan psixikaga aloqador jarayonlar ongning aks ettirish shakllari ekan, degan yuzaki xulosaga kelish noto’g’ri bo’ladi. Chunki inson psixikasi va uning ruhiy olamiga aloqador hodisalar va jarayonlar shu qadar murakkab va xilma–xilki, biz ba’zan o’z–o’zimizni ham tushunmay qolamiz. Shuning uchun ham odamlarning bilimdonligi nafaqat tashqi olamda ro’y berayotgan ob’ektiv hodisalar mohiyatiga aloqador bilimlar majmuiga ega bo’lishi bilan, balki hayotda munosib o’rin egallash, o’z ichki imkoniyatlari va salohiyatidan samarali foydalangan holda faoliyatini oqilona tashkil etishning barcha sirlaridan boxabar bo’lish, o’ziga va o’zgalarga tasir ko’rsatishning usullarini bilish va ulardan o’z o’rnida unumli foydalanishni nazarda tutadi.

Voqeylikni aks ettirishning o’ziga xos formasi bo’lib hisoblangan psixikaning turli tuman shaklda namoyon bo’lishini asosiy uch guruhga bo’lish mumkin: psixik jarayonlar, psixik holatlar va shaxsning psixik xususiyatlari.

Hozirgi zamon psixologiyasi juda murakkab va ko’p tarmoqli fan bo’lib, uning zimmasiga hayot murakab vazifalar yuklaydi, psixologiyaning asosiy nazariy va amaliy vazifasi psixik faoliyatning mohiyatini, uning sodir bo’lish va rivojlanish qonuniyatlarini tushuntirishdan iboratdir. Bu jixatdan har bir talaba bilish jarayonlarini atroflicha o’rgansa intellektual salohiyatli ilmiy dunyoqarashi keng bo’lib shakllanadi.

Bilish jarayonlari – shunday psixik jarayonlarki, ular shaxsga o’zini o’rab turgan atrof–muhitning ma’lum va muhim xususiyatlarini anglashga, tushunishga va ular ustida o’ziga zarur xulosalar chiqarib, o’z xulq–atvorini rejalashtirishga imkon beradi.

Bilish jarayonlariga avvalo bilish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hodisalar: sezgi, idrok, xotira, tafakkur, nutq, xayollar kiradi.

Sezgi – ayni choqda sezgi a'zolariga ta'sir etuvchi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini (rang, temperatura, hid va shu kabilar) aks ettirishdan iborat bo'lgan psixikaning oddiy, elementar formasidir. Biroq narsa va hodisalarning ayrim sifat va xususiyatlarining aks ettirilishi har doim narsalar dunyosini aks ettirish bilan qo'shib ketgan bo'ladi.

Idrok – bir butun, yaxlit narsa va hodisalarni hamda ularning qismlarini aks ettirishdan iboratdir. Idrok hamma vaqt sezgilar majmuiga tayanadi, lekin bilishning ancha yuqori bosqichi qisoblanadi (umuman yashil emas, balki rangidan tashqari bir qator belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan yam–yashil o't).

Xotira – o'tmish tajribada bo'lganlarni aks ettirish, boshqacha qilib aytganda biron narsani esga olish, esda saqlab turish va qayta esga tushirishdir. Bu miyada nerv bog'lanishlarining hosil bo'lishi, ularning saqlanishi, miyada qachonlardir biron marta sodir bo'lgan nerv jarayonlari va holatlarining qayta tiklash qobiliyati natijasida yuz beradi.

Narsa va hodisalar ichki mazmunining va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va munosabatlarning hamda taraqqiyot qonuniyatlarining, ya'ni bevosita sezgi a'zolari bilan sezib bo'lmaydigan, lekin muhim bo'lgan xususiyatlarining aks ettirilishiga tafakkur deb ataladi.

Tafakkur – faqatgina sezgilar, idroklar, xotiralar asosida, ya'ni hissiy tajriba orqali to'plangan bilimlar asosida bo'lishi mumkin. Tafakkur insonlarda bilimlarni, til vositasi asosida qayta ishlash jarayoni qisoblanadi. Shunday qilib, nutq insonlar o'rtasidagi asosiy va muhim aloqa vositasi bo'libgina holmay, shu bilan birga fikr yuritish formasi hamdir.

Bilimlarni aktiv ravishda qayta ishlash, shuningdek, xayol jarayonida ham amalga oshiriladi.

Xayol deb – o'zimiz bevosita idrok etmagan yangi fikr va obrazlarning hosil etilishiga aytiladi. Bu fikrlar ilgarigi tajribalarimiz asosida, ongimizdagi bilimlarni yangicha tartibda bir–biriga qo'shish orqali yoki xotira obrazlari va o'zlashtirilgan tushunchalarning elementlarini chatishtirish orqali hosil qilinadi.


Har qanday bilish jarayoni aktiv jarayon bo'lib qisoblanadi. Ongimizni ayni choqda boshqa narsalarga chalg'itmay biron narsaga mutassil qaratilishiga *diqqat* deb ataladi. Ko'pchilik hollarda diqqatga ham bilish jarayoni sifatida qaraladi.

Bilish jarayonlarini bilishning murakkabligi aynan shundaki, atrofimizdagi narsalar va hodisalarning mohiyatini bevosita his qilib bilishimiz mumkin, lekin psixik hayotga aloqador bo'lgan jarayonlarni, o'zimizda, miyamizda, ongimizda ro'y berayotgan narsalarning mohiyatini bilvosita bilamiz. Masalan, do'stlarimizdan biri bizga yoqadi, doimo bizda yaxshi, ijobiy taasurot qoldira oladi, lekin uning u yoki bu hatti–harakatlarni bevosita ko'rib, baholab, tahlil qilsakda, unga nisbatan his qilayotgan mehrimizni, uzoq ko'rishmay qolganimizda uni sog'inayotganligimiz bilan bog'liq hisni bevosita ko'rib, idrok qilish imkoniyatiga ega emasmiz. Aynan shunga o'xshash holatlar psixologiya o'rganadigan hodisalardan farq qiladi. Chunki zamonaviy kadrlar oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalardan biri–malakali bo'lajak mutaxassislar

sifatida o'zligini, o'z qobiliyatlari, individualligi, shaxsiy fazilat hamda xislatlarini bilgan tarzda atrofida gilar mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb mutaxassisi sifatida faoliyat ko'rsatishdir. Bu o'rinda inson ruhiyati qonuniyatlarini o'rganuvchi psixologiya fanining o'rni va roli benihoya kattadir.

Bilish jarayonlarini chuqurroq bilish, o'z umr bosqichlarini va har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta'minlash, yangicha fikrlash va ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ro'y berayotgan jarayonlarni ob'ektiv va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi.

Har bir inson faqat o'ziga xos individual bilish jarayoni, emotsional holati, iroda, xarakter, xulq-atvor xususiyatlariga egaligi bilan farqlanadi. Inson o'z shaxsining shaxs bo'lib shakllanishiga xos bo'lgan psixologik qonuniyatlarni va uning mexanizmlarini yaxshi bilsa, hayotda qoqilmaydi. Har bir bo'lajak muttaxassis, har bir fan o'quv predmeti metodikalarini balki, bugun komil insonni va barkamol shaxsni tarbiyalash masalasi turgan bir paytda bilish jarayonlarini chuqur bilishi ham zarur bo'ladi.



1.1. BILISH JARAYONLARINING TASHKILIIY – TUZILMAVIY KO'RINISHI.

Bilish jarayonlari ularning mazmun - mohiyati ilmiy dunyoqarashi bo'yicha bilimlarni bergani bilan uning o'zlari o'tayotgan psixologiya fani mavzusini yanada chuqurroq o'rganishi uchun yetmish savolga–yetmish javoblar alloma va muttafakkirlarning fikrlari hayot va ijodlari talabalarni o'z ustida ishlashga yordam beradigan tayanch so'z va iboralar ham kiritilganligi psixologiyaning boshqa masalalarini ham mustaqil o'rganish va ruhiy hodisalarni taqlil etishga o'rganish xozirgi zamon psixologik bilimlarni egallashga va shaxs ilmiy dunyoqarashini shakllantirish muammolariga samarali yordam beradigan, bu jarayonlaridan kundalik turmush tajribalarida foydalanish talabalarga o'qituvchilik faoliyatida asosiy bilimlardan bo'lgan psixologik tushunchalarni egallashga, shaxsning psixologiyasini, uning faoliyati, muloqotini bilib olishga, psixologik taraqqiyotning qonuniyatlarini bilib olishni ta'minlaydi.

Ta'lim–tarbiya jarayonida shaxs bilan bog'liq bo'lmagan masala yo'q shaxsga xos bo'lgan ayrim psixik jarayonlar inson psixikasi, uning amaliy faoliyati jarayonida namoyon bo'ladi, tarkib topadi va rivojlanadi. Bugun barkamol avlodning butun hayoti va faoliyati jarayonida uning psixikasini o'rganish va boshqarish psixologiyaning amaliy vazifasi hisoblanib, intellektual salohiyatli va ilmiy dunyoqarashini boyitib tarbiyalashga mustahkam asos bo'ladi.

Shuning uchun ham bilish jarayonlarini anglash orqali ta'lim tarbiya tizimini boshqarish imkoniyati yuzaga keladi. Ta'lim–tarbiya jarayonini ilmiy asosda boshqarish uchun esa, pedagog tabiat va jamiyatga nisbatan qarashlar tizimini shakllantirgan bo'lishi talab etiladi. Shundan kelib chiqqan holda bilish jarayonlari negizida shaxs dunyoqarashi tarkib topadi, – deb xulosa chiqarish uchun dunyoqarash tushunchasiga va uning mohiyatiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

SHAXS DUNYOQARASHINING YUKSALISH BOSQICHLARI.

Inson yuksak kamolotga erishuv yo'lida
qilganidek, aqliy bilishga ham harakat
qilsa, hech shubhasiz o'zi intilayotgan
so'nggi darajadagi baxt-saodatga erishadi
Abu Nasr Forobiy

Atoqli rus pedagogi K. D. Ushinskiy aytganidek: "Agar pedagogika kishini har tomonlama tarbiyalamoqchi bo'lsa, avvalo o'zi uni har tomonlama bilib olishi kerak".

Har qanday pedagog o'zi tarbiyalayotgan o'quvchisining ichki dunyosini bilmay uni tarbiyalab, doimo yaxshi munosabatda bo'la olmaydi. Biz har qanday psixik jarayon yoki shaxs xususiyatlariga konkret inson shaxsiga xos ravishda yondoshmog'imiz lozim. Shuning uchun shaxsning jarayonlarini va xususiyatlarini bilish uchun, shaxs haqida tushunchani uning dunyoqarashi masalalari bilan batafsil o'rganishimiz lozim.

Odam shaxs bo'lib tug'ilmaydi balki ijtimoiy munosabatlar taraqqiyoti jarayonida shaxs sifatida shakllanadi. Mustaqillik tufayli shaxs ilmiy dunyoqarashi tubdan o'zgardi, inson shaxsi tarkib topishi uchun qulay psixologik shart-sharoitlar ham yaratildi. Ayniqsa, fan texnika taraqqiyoti jadal rivojlanishi suniy intellektning yaratilishi har bir shaxsning o'z iste'dodlarini har tomonlama rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'ldi.

Demak, shaxs tarbiyasi jarayoni ijtimoiy muammo bo'lib, uning yechimi esa har bir inson o'sha jamiyatning to'laqonli faol a'zosi bo'lishligi bilan belgilanadi. Har bir inson shaxsi ijtimoiy va individual, umumiy va xususiy holatlarni o'zida mujassamlantiradi. Insonni har tomonlama kamol toptirish, shaxsni shakllantirish oiladan boshlanadi. Bu borada inson ontogenezi ma'lum bir ketma-ketlikda, umr bosqichlarida, kamolot pillapoyalarida shakllanadi.

Ma'lumki, jismoniy kamolot har doim ham inson ma'naviy kamolati va intellektual salohiyatini, ya'ni inson dunyoqarashining darajasini to'g'ri belgilab olish imkonini beravermaydi. Quyidagi ketma-ketlik esa inson kamolatini jismoniy va ma'rifiy darajalar asosidagi bosqichlarini belgilaydi: ilk go'daklik; bog'cha yoshi davri; kichik maktab yoshi davri; o'smirlik davri; o'spirinlik davri; yoshlik davri; yetuklik davri va hakoza. Ammo bu ketma-ketlik orqali keng ma'noda shaxsni o'rni, kamolatini, dunyoqarashini baholab bo'lmaydi. Shuning uchun ham birinchi navbatda dunyoqarash nima? – degan savolga javob berishi lozim.

«Dunyoqarash – falsafa fanining eng muhim kategoriyalaridan biri. Falsafaning asosini tashkil qiladi, olam va odam haqida bir butun qarashlar, g'oyalar tizimini yaratadi. Eng muhimi insonning olamga munosabati, dunyodagi o'rni, mohiyati, hayotiy yo'nalishi, o'zligini anglash kabi savollarga javob beradi. Zeroki, falsafaning asosi ham sog'lom aql tafakkuri va uning rivojiga mos keladigan dunyoqarashni yaratishdir. Buning uchun inson, eng avvalo, mukammal bilimga ega bo'lishi lozim» [22.].


«Dunyoqarash – dunyoga va insonning undagi oʻrniga, kishilarning oʻz atrofidagi voqelikka va oʻz-oʻziga, munosabatiga boʻlgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning eʼtiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari» [39].

«Dunyoqarash – shaxsning shaxsligini, maʼnaviyatini, ijtimoiylashuvi doirasini koʻrsatuvchi kuchli motivlardandir».

«Dunyoqarash – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va gʻoyalar majmui boʻlib, u shaxsni maʼlum qolipdan oʻz shaxsiy qiyofasiga ega tarzda tabiatda munosib oʻrin egallashga chorlaydi» [47].

Dunyoqarash – tabiat va jamiyatga, ularning hodisalariga boʻlgan ilmiy, mafkuraviy, maʼnaviy, ilohiy qarashlar tizimi.

Shaxs dunyoqarashini tashkil etuvchilarini va ularning integratsiyasini quyida biz 1.1.–shakldagidek ifodalashni lozim topdik, chunki bunday bogʻliqlik pedagogika fanidagi «Tarbiya nazariyasi»ning «Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va oʻquvchilarni aqliy tarbiyalash» mavzusini oʻrganilishiga mustahkam didaktik asos boʻladi.




1.1. – shakl. Shaxs dunyoqarashi, shakllanish omillari va ularning oʻzaro munosabatlari.

Dunyoqarash shakllanishining yana bir xususiyati shundan iboratki, xususiy koʻrinishlardan umumiy koʻrinishlarga, yaʼni individual xususiyatlardan ijtimoiy xususiyatlargacha rivojlanib, takomillashib boraveradi va shuning bilan birga u ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bogʻliq. Dunyoqarash kishilarning yoshi, hayot tajribasi, intellektual salohiyati, mafkurasida va shu kabilar bilan bogʻliq ravishda rivojlanib takomillashib boradi. Dunyoqarash insonning oʻzini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi. Bu borada hozirgi yoshlarimiz ongini oʻstirish va tafakkurini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bular orqali ularni intellektual salohiyatli siyosiy ongli qilib, tarbiyalash imkoniyati yaratiladi. Bu esa erkin va mustaqil fikrlaydigan, oʻzligini anglay

oladigan, ya'ni har xil zararli oqimlarga qo'shilib ketavermaydigan bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda mustahkam asos bo'la oladi.

Shaxsning dunyoqarashi, ayniqsa, ilmiy dunyoqarashning kengligi, ularning asosiy tarkibiy qismlari: aql, ong, fikr, ilm, bilim, ilmiy bilim, ilmiy qarash, e'tiqod, ilmiy tafakkur va shu kabilarga bog'liq.

«Dastlab, individ dunyoni hissiy sezadi (dunyoni his qilish). Bunda individ voqelikni bevosita hissiy bilish natijasida anglaydi. Keyin voqelik haqida to'plangan bilimlar asosida individual dunyoqarash paydo bo'ladi. Bu dunyoni anglash deyiladi. Shaxsning dunyoni anglashi orqali uning o'zini anglashi ham shakllanib boraveradi. Shu tariqa dunyo haqidagi barcha bilimlar yuksak darajada umumlashtiriladi va yaxlit dunyoqarash hosil bo'ladi» [39].



1.3. Yaxlit dunyoqarashning tashkiliy-tuzilmaviy ko'rinishi.

Demak, ayrim odamning aqli, ongi bilan bog'liq holda shakllangan dunyoqarash, individual dunyoqarash bo'ladi va uning muayyan ijtimoiy jamoa (guruh, qatlam, sinf, millat, elat, xalq, va jamiyat miqyosi)dagi ijtimoiy onggi asosida shakllangan dunyoqarashni *ijtimoiy dunyoqarash* deyiladi. Bu jarayonda individual dunyoqarashning kengayib borishi, ijtimoiy dunyoqarashni yuksaltirishga asos bo'ladi va ular doimo bir–biri bilan muntazam aloqadorlikda bo'ladi va bir–birini rivojlantiradi. Bu jarayon shaxs kamolati bosqichi ketma–ketligida yaqqol seziladi.

Demak, endi shaxs dunyoqarashi haqida va ularning tashkil etuvchilari, asoslari va shakllanish bosqichlari haqida ma'lum bir tushunchaga ega bo'ldik va uni quyidagi 1.2. – shakldagidek ifodalashni lozim topdik.

Bu borada olib borilgan ko'p yillik ilmiy izlanishlarimiz ko'rsatishicha, talabalar ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda ularga shaxs ijodiy kamoloti ketma–ketligi haqida ma'lumot berish, ijobiy pedagogik samaralarni berar ekan. Bu ketma–ketlik, odam shaxs darajasiga erishgandan keyingi intellektual salohiyatga ega bo'lgandan boshlab baholansa, talabalar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishni to'g'ri yo'lga qo'yish imkoniyati tug'iladi va ulardan ta'lim–tarbiya jarayonida asosli ravishda foydalanishga erishiladi. Demak, dunyoqarash insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida rivojlanib borgan va ular taraqqiyot jarayoni davomida turli ko'rinishlarni olgan. Albatta, ular ko'rinishlari o'zining mazmun–mohiyati jihatidan ham turli yo'nalishlarda bo'ladi. Shu sababli ham ulardan ta'lim–tarbiya jarayonida foydalanish, ularning mos ko'rinishlarini tanlash ham o'ziga xos ijodiy jarayondir. Buni samarali amalga oshirishni osonlashtirish maqsadida ular haqida qisqacha ma'lumotlar keltiramiz. Xuddi shuningdek, bu qayd etilgan dunyoqarashlardan tashqari ilmiy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik va shu kabi dunyoqarashlar ham mavjud. Shu sababli ham kishi ongida, uning qalbidagi e'tiqodi asosida dunyoqarash shakllanadi, ya'ni dunyoqarash– odamning tevarak atrofdagi olamga va undagi o'zining tutgan o'rniga qarashlaridan kelib chiqan tizim. Kishilarning falsafiy, siyosiy, ilmiy, diniy, aqliy va estetik qarashlar yig'indisi.

Yuqorida keltirilgan ya'ni dunyoqarashga berilgan qomusiy va falsafiy lug'atdagi ta'riflar hamda pedagogik va psixologik ta'riflardan ko'rinib turibdiki, dunyoqarash tushunchasi odamning, o'zining onadan tug'ilishi bilan dunyoni ko'rishidan boshlanib, yuksak intellektual salohiyatni egallagunga qadar rivojlanib boradi. Ular «aql > ong > fikr > ilm > bilim > qarash > g'oya > ta'limot» tizim orqali rivojlanib, takomillashib boradi.

Demak, yuqorida qayd etilganidek, ongning mavjudligidan fikr va ularni ifodalovchi ma'lumotlar shakllanib, ong tafakkurning shakllanishida mustahkam asos bo'lib qisoblanadi.

1. Mifologik dunyoqarash.

Bu afsonalarga, orzu–istaklarga, nodir qo'lyozmalar va shu kabilarga tayanuvchi dunyoqarashdan iboratdir. Dunyoqarash, kishilik jamiyati turli davrlarida, ayniqsa qadimgi davrda yashovchi kishilar turmush tarzidan kelib chiqib, avvalo, ular orzu–istak, istiqboli niyat ifodasida kishilik jamiyati oldida muammo sifatida paydo bo'ladi. Ular voqelikni turli rivoyatlar va afsonalar asosida

tasvirlab, uni jonsiz tabiat elementlari, qahramonlar, yovuz va xayrli kuchlarni aks ettiruvchi obrazlar tarzida bilishgan. Tabiatdagi jonsiz jismlarni jonlantirib, olov, suv, havo, tabiat hodisalarini ham muayyan jonli obrazlarning namoyon bo'lishi, deb hisoblaganlar. Jumladan, «uchar gilam», «oynai jahon», beshik, yozuv, qog'oz, kitob bosish, bosmaxona, soat, radio, televizor, kino, telefon, arximed vinti, samolyotlar shular jumlasidandir.

Shu tariqa dunyoqarash ijtimoiy va an'anaviy ideallar shaklida tarixan muayyan ideologik tarkibdan o'rin olib, ma'lum sinflar, guruhlar, ayrim kishilar faoliyati hatti-harakatlarini ma'lum yo'nalishga buradigan, tegishli normaga soladigan hodisaga aylanadi.

Ilmiy dunyoqarash orzu-umidlar ro'yobga chiqishi bilan bog'liq bo'lib, u kishilar va jamiyatga intiluvchi oliy maqsadni ro'yobga chiqarishdagi ijodiy faoliyat natijasidir.

Kishilar tarixda o'z istiqboli kelajagiga mos yutuqlarni orzu qilib, bu orzu-istaklarni nodir qo'lyozmalar (muqaddas kitoblar, ertaklar, dostonlar)da ifodalaganlar. Jumladan, ertak va dostonlardagi «oynai jahon» orqali «zangori ekran»ning, «uchar gilam» orqali «aviatsiya»ning, «avesto» orqali bunyodkorlik va unga qarshi vayronokorlik g'oyalarining yozma manbalar orqali, ozodlik qahramonlarining, ya'ni To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Layli va Majnun, Farxod kabi obrazlarning ifodalanishi, fikrimizning dalilidir. Abu nasr Farobiyning «fozil odamlar shahri» asari orqali, adolatli jamiyat qurish ta'limoti, Alisher Navoiy asarlari orqali, komil inson ta'limoti, to'lqinlar tarqalishi qonuniyatlari orqali, radiaodan hayotda foydalanish, odamlar qadimdan ot qo'shmasdan o'zi yuradigan arava yasashni orzu qilib, avtomobilni yasash, nutq va boshqa tovushlarni istalgan masofaga uzatishni orzu qilib, telefonni yasashni, tez hisoblashlarni orzu qilib, elektron hisoblash mashinalarni yaratishni, ma'lumotlarni saqlash vositalarini izlanishda qog'ozni hosil qilish va shular asosida yozuv va kitoblarni yaratishni, vaqtni hisob qilish, maqsadida soatning yaratilishi va shu kabilarni hamma-hammasi insoniyat ilmiy dunyoqarashi kengayishi mahsulidir. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi. Bunda kishilar, kishilik jamiyatining jami bilimi, tajribasi, iste'dodi – ilmiy dunyoqarashida namoyon bo'ladi.

2. Diniy dunyoqarash.

Unda jahondagi (tabiat va jamiyat) jamiki voqea vahodisalarining sabablarini ilohiy, g'ayritabiiy kuch bilan bog'lab tushuntiriladi.

«Din» arabcha so'z bo'lib, o'zbekchada «ishonmoq, tanimoq», degan ma'noni anglatadi. Din insonning muqaddas ilohiy kuch-xudo mavjudligiga asoslangan ongli dunyoqarashi, hissiyoti, e'tiqod qilishi, hatti-harakatlari majmuasidir [12].

Diniy e'tiqod, tuyg'u, dunyo aqidalariga ishonish, ilohiy kuchlarga sig'inish diniy dunyoqarashning muhim jihatlarini qisoblanadi. Diniy dunyoqarash, komil insonning shakllanishida ulkan qudratga ega va ular yordamida insonda ma'naviy, axloqiy jihatlar yuksaklikka ko'tariladi.

«Yozuvchi va olim usmon turarning «tasavvuf tarixi» («istiqloq» nashriyoti, Toshkent, 1999) kitobida yozilishicha, ba'zi payg'ambarlar ma'lum bir soha,

kasbning piri qisoblanganlar. Masalan: hazrat odam alayhissalom–dehqonlarning, his alayhissalom–paxtachilarning, idris alayhissalom–tikuvchi va xattotlarning, nuh Alayhissalom– savdogarlarning, soliq Alayhissalom–tuyakashlarning, ibroqim alayhissalom–sutchi va duradgorlarning, ismoil alayhissalom–ovchilarning, Isqoq Alayhissalom–cho’ponlarning, zul–kifl alayhissalom–novvoylarning, lut alayhissalom–tarixchilarning, uzayr alayhissalom–bog’bonlarning, ilyos alayhissalom–to’qimachilarning, dovud alayhissalom–temirchilarning, luqmoni hakim–tabiblarning, yunusalayhissalom–baliqchilarning, muhammad alayhissalom –bog’bon va savdogarlarning pirlaridir.

Bashariyat tarixida quyidagi odillik, ma'murchilik, pahlavonlik, sahiylik, donishmandlik, tabiblik, boylik, xasislik va go’zallik timsoli, ramzi sanalganlar:

- odillik timsoli–nomusulmonlardan anushirvoni odil, musulmonlardan hazrat Umar ibn Hattob;
- ideal podshoh, odil hukmdor, buyuk foh, hukmdorlik va ma'murchilik timsoli – Iskandar Zulqarnayn;
- pahlavonlik timsoli – Rustam doston va xalifa hazrat ali;
- sahiylik timsoli – hotam toiy;
- donishmandlik timsoli – aplotun;
- tabiblik va donishmandlik timsoli – luqmoni hakim;
- boylik timsoli – fir'avn vaziri qorun;
- ziqnalik, xasislik timsoli – rus yozuvchisi n.v.gogolning (1809-1852) «o’lik jonlar» asaridagi qahramonlardan biri yirik yer egasi, boy, dvoryan – plyushkindir;
- go’zallik timsoli – ayollardan momo havo, erkaklardan payg’ambar yusuf alayhissalom [12].

3. Turmush bilan bog’langan (kundalik) dunyoqarash.

Bunda, aql doirasidagi tasavvurlar, olam va odam to’g’risidagi oddiy an'anaviy qarashlar e'tiborga olinadi va bu orqali har bir insonning oila a'zolari hamda odamlar (qo’ni–qo’shni, mahalla, jamoa va shu kabilar) orasidagi munosabatlari natijalari (fikir, g’oya, qarash va h.k.)ga e'tibor beriladi. Ular asosida insonning dunyo va tevarak–atrofdagi o’rni va nufuzi belgilanadi va bu esa individual dunyoqarashning ijtimoiy dunyoqarashga aylanishida muhim rol o’ynaydi.

4. Falsafiy dunyoqarash.

Bu qayd etilgan dunyoqarashlar ichida eng umumiysi hisoblanadi. Unda butun borliq, ya'ni tabiat, jamiyat, inson ruhyati va tafakkurining eng umumiy jihatlari qamrab olinadi.

Dunyoqarashning boshqa turlari asosida falsafiy dunyoqarash shakllantiriladi va ularga tayanadi. Falsafiy dunyoqarash falsafa fanining shakllanishi bilan birgalikda paydo bo’lib, takomillashib kelmoqda.

Dunyoqarash insonning o’zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanib, uning yordamida yoshlarimiz ongini o’stirish va tafakkurini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bular orqaligina erkin va mustaqil fikrlaydigan, o’zligini anglay oladigan, ya'ni har xil zararli oqimlarga

qo'shilib ketavermaydigan bo'lajak mutaxassislarni intellektual salohiyatli, siyosiy ongli qilib tarbiyalash imkoniyati yaratiladi;

– yuqorida keltirilgan dunyoqarashning ko'rinishlari (mifologik, ilmiy, diniy, kundalik, falsafiy, ijtimoiy) va inson kamoloti bosqichlari haqidagi ma'lumotlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlash va ularni davr talabiga mos takomillashtirishda mustahkam ma'naviy–ma'rifiy asos bo'ladi, shuningdek, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi ta'lim–tarbiya jarayonida muntazam foydalanilib borilishi natijasida ma'naviy yetuk, erkin va mustaqil fikrlaydigan, «XXI asr – intellektual asr»ning faol ishtirokchisi bo'lgan mutaxassis tayyorlashga erishiladi;

INSON INTELLEKTUAL KAMOLATI BOSQICHLARI.

Dunyoqarash kishilarning yoshi, hayot tajribasi, intellektual salohiyati, mafkurasi va shu kabilar bilan bog'liq ravishda rivojlanib, takomillashib boradi.

Bular orqali, talabalarni intellektual salohiyatli, siyosiy ongli qilib tarbiyalash imkoniyati yaratilib, uning yordamida erkin mustaqil fikrlaydigan, o'zligini anglay oladigan, ya'ni har xil zararli oqimlarga qo'shilib ketavermaydigan bo'lajak kadrlarni tayyorlashga mustahkam asos bo'ladi.

Talabalar ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va ularning ma'naviyatini yuksaltirishni, samarali amalga oshirish uchun, shaxs intellektual kamolotini quyidagi ketma–ketlikda ifodalashni lozim topdik: aqlli odam; ongli odam; fikrli kishi; ilimli–bilimli kishi; g'oyali inson; ma'rifatli va ma'naviyatli shaxs; madaniyatli va barkamol shaxs; olim; alloma; mutafakkir; donishmand va komil inson.

1. Aqlli odam.

Ma'lumki, insonlar ikki nuqta orasidagi eng qisqa masofani to'g'ri chiziq orqali aniqlaydilar. Bu tushuncha kishilar faoliyatida biror bir maqsadga erishishga yaxshilik, to'g'rilik va to'g'ri yo'l bilan tez va oson borishlikka mos holatdir.

Bunday holatni amalga oshirish uchun esa kishilar ongli, aqlli, farosatli va albatta ilimli–bilimli bo'lmog'i lozim. Bu haqida payg'ambarimiz Muhammad Mustafó s.a.v. Ilm haqida shunday deganlar:

«Ilm o'rganinglar: ilm zulmatda quyosh, vahshatda hamrox, yolg'izlikda yo'ldosh, begona yurtda sirdosh, og'ir damda rahbar, dushmanga qarshi quroldir».

Demak, ilimli kishi hayotning har qanday sir–sinoatlariga tayyor bo'ladi va ular hayotda kamroq surinadilar. Aslida ilm olishdan maqsad ham aqlni charxlashdir va charxlangan aql yordamida chin haqiqatni, hayotni hamda uning qonuniyatlarini bilishdan iboratdir. Bu bilan aqlli odam bilimli va ilimli bo'la oladi va hayotda to'g'ri, yanglishmay, yaxshi yashash mumkin, – degan xulosani ham hosil qilamiz.

«Aqlli odam o'rgangan bilimlari natijasida hayotda nima qilish kerakligini biladi. Dono esa nima qilmaslik kerakligini ham biladi. Aqlli odam shunday odamki, u qiyin vaziyatdan osongina beshikast chiqib ketadi, dono esa bu qiyin vaziyatga aslo tushmaydi».

Aqli raso odam ana shunday donolik va donishmandlikka intilib yashamog'i lozim. Oqillar ilmdan, hikmatli, ibratli so'zlardan fikr, ibrat olsalar, axmoqlar esa so'zdan emas, kulfatdan va baxtsizlikdan saboq oladilar. Peshonalari devorga taq etib urilgandagina ko'zlari biroz ochiladi. Uning saboqlari ana shu tariqa bo'ladi.

Bilimlarni egallagan odamlar ana shu bilimlarini boshqalarga o'rgatishlaridan tashqari o'zlari ham hayotda uni qo'llay bilishlari, ulardan unumli foydalanishlari, kerakli nazariyani amaliyotga bog'lashni uddalashlari va hayot mashaqqatlarini osonlashtirishlari lozim. Yetuk inson nafaqat boshqalarni, balki o'zini ham tarbiyalamog'i kerak» [12].

Demak, odamdagi aqllilik, uning donolik va donishmandlik fazilatlarini asoslaridan birini ham tashkil etish mumkin ekan, shuningdek, ular yetuklik darajasiga ham erishishi mumkin bo'lib, bunday odamlar o'zlarini ham tarbiyalab bora olar ekan.

«Aql «al-fa'ol» to'g'risida yaqin va o'rta sharq mamlakatlarining faylasuf olimlari, shoirlari Farobiy, ibn Bajja, ibn Rushd, Abu Ali ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy va boshqalar o'z asarlaridagi qarashlarida, ta'limotlarida olamning vujudga kelishida (olamiy aql shaklida) birinchi sabab allohdan kelib chiqadi, deb tushuntirish berib o'tishgan. Bu olamiy aql, ya'ni insondagi shaxsiy aqlning yuzaga kelishi va rivojiga ta'sir etadi. Har bir inson aqli, o'z navbatida olamiy aql bilan birlashishiga intiladi. Insonning shaxsiy aqli olamni borgan sari chuqurroq bilib borish jarayonida asosan uch bosqichni bosib o'tishi ta'kidlangan.

Ong mutlaq bilimlar, ya'ni olamning boshlang'ich asosi haqidagi bilimlarni o'zlashtirgandan so'ng, olamiy aqlga birlashadi, uni boyitadi. Dunyoviy bilim bilan boyigan olamiy aql insoniyat tamadduniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Olamiy aql bilan inson shaxsiy aqlining munosabati haqidagi ta'limot, jamiyat, ma'naviyat va madaniyatini uzluksiz boyitib borishi, inson aql-idrokining ilm-ma'rifatga qo'shgan hissasi bilan mangulikka erishishda har kimning o'z sohasidagi ilmiy va ijodiy merosini kelgusi avlodlarga qoldirish uchun intilishi zarurligi haqidagi fikrlarni ifodalaydi» [67].

Dunyoda odam bolasiga har tomonidan ato etilgan aql, oliy ne'matdir. Aql, moddiy va ma'naviy olamni bog'lovchi kishi kamoloti asosidir. Shu sababli ham uning yordamida ma'naviy haqiqatlar bilan insoniyat jamiyatining buyuk ruhiy tabaqalarini paydo qilib, dunyoviy ishlarda tartib-intizomni yaratishga erishiladi va aksariyat hollarda u ijro etiladi.

Aql bordirki, o'zi ko'rinmaydi, ammo barcha narsa va hodisalarni ko'ra oladi, bir zumda dunyoni sayr qila oladi, shuningdek, samoviy jismlarning harakati holatlarini aniqlash hamda ularning o'zaro aloqadorligiga bo'lgan qonuniyatlarni kashf qilishda ham iste'dodini ishga soladi.

Demak, aqlli odam buyuk yaratishga, olamni obod qilishga, kishilarning mushkulini oson qilishga, jamiyat va davlat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga, odamlar o'rtasidagi insonparvarlikni yuksaltirishga xizmat qilib, o'zini ham inson kamolati bosqichlariga erishishda surinmay, to'qnashmay borishini ham ta'minlay oladi va ular bugungi yoshlarimiz tarbiyasida ibrat-namuna bo'la oladi. Chunki, aqlli odam o'rgangan bilimlariga asoslanib hayotda turmush tarzini belgilay oladi. Bu borada dono odam shunga qo'shimcha qilib nima qilmaslik

kerakligini ham biladi. Aqlli odam qiyin vaziyatdan osongina chiqib ketadi, dono odam esa bunday qiyin vaziyatga tushmaydi.

Demak, aqlli odam donolik sari intilishi kerak ekan va ana shunday odamgina komillik va donishmandlikka intilib yashashi mumkin.

2. Ongli odam.

Ong – borliqni va undagi narsa–hodisalarni aks ettirishning yuksak, faqat odamga xos shakli. Ong ham aql, ham inson miyasi mahsuli.

Insonning ijtimoiy hayotni tushunishi, sezishi, unga munosabati uning ongida yuz beradi.

Siyosiy ong, ijtimoiy ong, individual ong va shu kabi ko'rinishdagi ong shakllari mavjud bo'lib, ularning asosini ongli odam tashkil etadi. Shu sababli ham insonning ongi juda ko'p narsa va hodisalarni bilish quvvatiga ega.

Individual onglardan tashkil topadigan ijtimoiy ong umumxalq boyligiga aylanib boraveradi va shu asosda jamiyatimizda ma'naviyat, ma'rifat yuksalaveradi.

Demak, kishilar barkamolligi, aqlliligi, ilmliligi, ma'rifatliligi, ma'naviyatliligi, madaniyatliligi, komilliligi va h.k. shu kabi kamolat bosqichlariga muvaffaqiyatli erishishiga eng avvalo uning (insonning) ongliligi muhim asos ekan.

3. Fikrli odam.

Fikr – biror narsa, kimsa haqidagi o'y, xayol. Fikrlash – biror xulosaga kelish uchun, narsa va xodisalarni taqqoslamq, o'ylamoq, mulohaza qilmoq, razm solmoq. Fikrli odam–o'ylab, aql bilan ish tutadigan mulohazali kishi.

Fikrlash erkinligi – insonning intellektual va ma'naviy hayotining hamma yo'nalishlarini o'z ichiga oladi; insonning eng asosiy shaxsiy huquqlaridan biri bo'lib, avvalo shaxsning har qanday mafkuraviy taziqidan holi, erkin ekanligi, har kim o'zi uchun xohlagan ma'naviy qadriyatlar tizimini mustaqil tanlashni anglatadi; insonning mutloq huquqi bo'lib, O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining 29–moddasiga ko'ra har kim fikrlash erkinligi huquqiga ega, fikr yuritish (fikrlash) va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin. [26].

Fikr inson oldida eng oddiy bo'lsada biror muammo yoki vazifa turganda paydo bo'ladi. Fikrlay olish qobiliyati o'yin paytida ham, o'qishda ham, ishda ham, mehnatda ham, ijodda ham paydo bo'ladi va rivojlanadi. Bunda ko'p narsa insonning o'ziga, uning qat'iyati, qobiliyati va faoliyatiga bog'liq. Muhimi fikrlashdan erinmaslik kerak, murakkab muammolarni bajarayotganda astoydil harakat qilishdan qo'rqmaslik kerak.

4. Ilmli – bilimli kishi.

Ilm – insonning o'qish, o'rganish va shaxsiy hayotidagi tajribalar, kuzatishlar natijasida shakllangan bilim va malakalar majmui. Inson kamolatidagi ilm egallash qobiliyati, uning ulkan fazilatlaridan biri qisoblanadi. Chunki, inson bilim bilan shon-sharafga erishadi – shuhrat qozonadi.

Ilm – inson kamolatida ilm egallash asosiy fazilatlardan biri bo'lib qisoblanadi. Chunki, kishi u bilan o'zligini anglaydi, davlat, jamiyat, jamoa va oilasidagi o'rnini topadi, shuningdek shon–sharafga erishadi.

Qur'oni karimda ilmlik bilan ilmsiz barobar emasligi ko'rsatilgan. Yana bir oyatda «allohdan faqat ilmli kishilargina qo'rqadilar», deyilgan. Hadisi sharifda esa quyidagi fikrni o'qishimiz mumkin:

«ilmni egallang! Ilm sahroda–do'st, hayot yo'llarida–tayanch, yolg'izlik damlarida–yo'ldosh, baxtiyor daqiqalaringda–rahbar, qayg'uli onlaringda–hamdard, odamlar orasida–zebu–ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda–quroldir».

Ilmli kishi: ma'naviy boylikka ega bo'ladi va har qanday holatda ham hodisa va jarayonlarga (narsa va buyumlarga) nisbatan, eng asosiysi inson va uning taqdiriga nisbatan ongli munosabatda bo'ladi, aks holda kishi ilmsiz bo'ladi va u odam ma'naviy qashshoqdir. Ma'naviy qashshoq odamdan yaxshilikni kutish qiyin, ulardan faqat ta'magirlik va hattoki bosqinchilikni kutish mumkin.

Bilimli odam hayotda kamroq qoqiladi, suriladi. Ilm olishdan maqsad aqlni charxlashdir. Aqlni charxlash esa dunyoqarashni kengaytirishdir va ana shu aql yordamida chin haqiqatni, hayotni hamda uning kurash qonunlarini bilishdir. Besh kunlik hayotda to'g'ri, yanglishmay, adashmay, yaxshi yashab o'tishga harakat qilishdir.

5. G'oyali kishi.

Fikrlay olgan odamda g'oya paydo bo'lishi mumkin. G'oya bilan fikr bir-biridan farq qiladi. Fikr shaxsiy munosabatni ifodalasa, g'oya ijtimoiy maqsadni aks ettiradi. Shuning uchun ham g'oya tafakkur mahsuli, ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan fikrdir.

Ijtimoiy maqsad ko'pchilik, ya'ni jamoatchilikning orzu–intilishlarini ifoda etadi. Shaxsiy fikrning ijtimoiy maqsadga aylanishida hayot voqelik muhim o'rin tutadi.

Kishilar ong, aql, fikr va tafakkurga ega bo'lganliklari uchun ham kosmosga yo'l ochish, okeanlardan suzib o'tish, atomni parchalanish, unitilgan tillarning sirlarini topish, «oynai jahon», «uchar gilam», «o'zi yurar arava», «otash arava» va shu kabi g'oyalarni shakllantirdilar.

G'oya – inson tafakkuri mahsuli sifatida paydo bo'ladi va u quyidagi xususiyatlarga ega, ya'ni maqsad va manfaatlarni aks ettirish; o'ziga xos tizim hosil qilish; uyushtirish, safarbar etish (olg'a boshlash) va harakat manbai hamda haqiqat mezon bo'lish.

G'oyalar qanday manfaatlarni va maqsadlarni aks ettirishiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

Sinfiy;

Milliy;

Umumbashariy;

Bunyodkor;

Vayronkor va shu kabilar.

G'oyalar mavjudlik shakliga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

Siyosiy;

Iqtisodiy;

Diniy;

Badiy;

Ilmiy;

Falsafiy va shu kabilar.

Demak, fikrning ilmiy fikrga aylanishi va undan keyin ular asosida g'oyaning shakllantirilishi intellektual salohiyatli kishiga tegishli ekan, ya'ni g'oyali kishi muayyan yo'nalish bo'yicha fundamental bilimlarga ega, davalat va jamiyat, ijtimoiy maqsadini ko'zlab ish yurituvchi, ijodiy fikrlay oladigan, o'z shaxsiy manfaatini davlat va jamiyat manfaatidan ustun qo'ymaydigan kishidir.

6. Ma'rifatli odam.

Ma'rifat – (arab. «arafa», bilmoq) – tarbiyaviy, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g'oyalar majmui asosida kishilarning ongi va bilimin,i madaniyatini o'stirishga qaratilgan faoliyat.

Ma'rifat odamlarga bilim berish, ko'nikma va malakalar hosil qildirishdir.

Har qanday odam o'z ma'rifatini bilimiga qarab yuqori darajaga ko'tarishi va nurlil kelajagini oldindan ko'ra olishi mumkin. Ma'rifatli insonlar esa ma'rifatli xalqni tashkil etadi.

Ma'rifatli xalqni esa boshqa salbiy kuchlar engal olmaydi, ya'ni ma'rifatli xalqni yo'ldan ozdirib ham, boshqa yo'lga solib ham bo'lmaydi. Chunki ma'rifatli xalq o'z hayot yo'lini aql–idrok bilan belgilab oladi va kelajakni oldindan ko'ra oladi. Demak, ma'rifatli odamlargina ma'naviyatli, ma'rifatli jamiyat asosini tashkil etar ekan.

7. Ma'naviyatli odam.

Ma'naviyat so'zi to'g'risida, ya'ni ma'naviyat arabcha so'z bo'lib, uning ma'nosi «ma'ni», «ma'no»larni, ya'ni «ma'nolar majmui»ni anglatadi. Demak, ma'naviyatli odam bo'lishi uchun, uning yuksak ma'no–mazmuni hayoti, ma'nili xatti-harakatli bo'lmog'i kerak. Ma'naviyatli odam nihoyatda ko'p qirrali va sermazmun hayot egasi bo'lmog'i lozim. Bunda insonning ma'noli hayoti bilan bog'liq ko'pdan–ko'p bilim va tasavvurlar e'tiborga olinmog'i lozim, chunki, «vijdon», «imon», «axloq», «e'tiqod», «iroda», «dunyoqarash», «tafakkur» kabi tushunchalarning barchasi insonning ma'noli faoliyatini ifoda etadi.

Ma'naviyat jamiyatning ma'naviy boyliklarida o'z ifodasini topadi. U inqilobiy to'ntarilish, o'zgarishlar shaklida emas, balki asta–sekin to'planib, uyg'unlashib borish va vorislik asosida rivojlanadi.

Ma'naviyat kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui.

Ma'naviyat mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir–birlarini taqozo etadilar.

Ma'naviyat insonning zot belgisi, ongi, aqliy qobiliyatini, ruhiy kechinmalarini yaxshiliklarga, ezgu niyatlarga to'la qalbini ifodalovchi ko'p qirrali tushuncha. «Ma'naviyat insonga ona suti, ota nomusi, ajdodlar o'giti bilan singadi».

Vatanparvarlik, xalqparvarlik, mehnatsevarlik, milliy tuyg'u va g'urur, o'z oilasi va nasl–nasabi bilan faxrlanish, or–nomus va shu kabilar ma'naviyatning teran jihatlaridir.

Odamning ma'naviy qiyofasini, uning tashqi ko'rinishi, hatti–harakati, xulq – atvori, muloqat madaniyatlaridan anglash mumkin.

8. Madaniyatli odam.

Madaniyat nurni e'zozlash orqali erishiladigan maqom. Madaniyat insonni sevishtirishni o'rgatadi. Madaniyat muattarlikdir, ya'ni hayot va go'zallikni uyg'unligidir. Madaniyat kishining nur quroli bo'lib, kishining ma'naviy qalbidan iborat.

Bunda shaxsiy madaniyat–kishida va uning hayot faoliyati davomida alohida shakllangan madaniyat.

Ijtimoiy madaniyat–ijtimoiy guruh yoki jamiyatning hayot faoliyati davomida shakllangan madaniyat.

Madaniyatning tarkib topishini quyidagi holatlarda uchratish mumkin:

Insonlarning tabiatga bo'lgan ongli mungosabat (yerga ishlov berish, tevarak–atrofni ekologik jihatdan toza saqlashga erishish, daraxtlarga estetik did bilan shakl berish va h.k.)da bo'lish va insonning o'zini–o'zi tarbiyalash (ta'lim–tarbiya olish, oiladan, mahalladagi ulug' kishilardan ibrat–namuna olish) hamda o'zining boshqalarga o'rnak bo'ladigan xislatlari majmui asosida tarkib topadi.

Jamiyat taraqqiyotidagi sivilizatsiya bilan bog'liq madaniyat. Bunda «uyg'onish davri»da madaniyat yetukligi deganda insonning gumanistik g'oyalari, keyinroq ma'rifatchilik g'oyalariga muvofiqlikni tushuna boshlaganlar.

Madaniyat o'tmishga, bugunga va kelajakka asoslanib shakllanadi, ya'ni o'tmishdan bizga meros bo'lib kelayotgan milliy–ma'naviy qadriyatlar ulug'lanib, ulardan ibrat–namuna olinadi va bugungi kun fan–madaniyat yutuqlari bilan ular boyitiladi hamda uzoq muddatni ko'zlab tayyorlangan hujjatlar («ta'lim to'g'risi»gi qonun, «kadrlar tayyorlash milliy dasturi», taraqqiyotning o'zbek modeli va h.k.) asosida madaniyatni yuksaltirish rejalashtiriladi. Chunki xalq madaniyatida avlodlar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar jamlangan. Ularni bilmay turib, o'zlashtirmasdan kishi madaniyatli bo'lishi qiyin.

Shuning bilan birga madaniyatli odam rostgo'y, odil, aqlli, o'z kasbining mohir ustasi, ma'rifatli bo'lmog'i lozim, chunki madaniyat rivojida professional ijodkorlar, san'atkorlar, o'qituvchilar va murabbiylar ham katta o'rin tutadilar.

Bu borada A. Navoiy, Abu Nasr Farobiy, Yusuf Hos Hojib, Pirimqul Qodirov, Abdulhay Abdulkarimov kabi ulug' zotlar asarlari «yo'lchi yulduz» bo'ladi, desak xato bo'lmaydi.

Umuman olganda, madaniyatli kishi jamiyat (jamo'a, mahalla, oila) ko'rki.

9. Barkamol inson.

Prezidentimizning barcha asarlarida barkamol inson tarbiyasi, ma'naviyati, ishonch–e'tiqodi, bilimi asosiy o'rin egallagan.

Ta'lim tizimimizning asosiy vazifasi, ongli yashaydigan, mustaqil fikrga ega bo'lgan, erkin fikrlaydigan, ma'rifatparvar ozod va erkin insonni tarbiyalab etishtirishdan iboratdir. Buning ma'nosi shuki, erkinlik inson hayotining mazmunidir. Insonning barcha faoliyati erkinlashtirilgandagina uning intilishlari jamiyat rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'ladi. Ana shundagina olingan bilim taraqqiyotga xizmat qiladi, yoshlarning mustaqil hayot kechirishini ta'minlaydi.

Barkamol inson hayotimizda bo'layotgan ulkan o'zgarishlarni o'z idroki bilan taqlil qila oladi. Mustaqillik, ozodlik qadriga etadi.

«Bizning ajdodlarimiz hamisha uzoqni ko'zlab yashagan, – deb ta'kidlaydi prezidentimiz, – millat, vatan, xalq istiqboli degan muqaddas tushunchalar hamma

vaqt qalbimizning to'ridan joy olib, har birimizning xayolimizda, ongimizda charx urib turishi darkor».

10. Komil inson.

Komil inson deganda biz, o'zgalarga ibrat bo'ladigan, bilimli, ongi yuksak, mustaqil fikrlaydigan, ma'rifatli kishilarni tushunamiz.

Komil – kamolatga erishgan, bekami–ko'st, to'la darajada insoni komil [42].

Komillik bu insonning hayotligida amalga oshirgan barcha ishlarining pok e'tiqod bilan sug'orilishi, haqqa intilishi, haqiqatga, yorug'likka yaqinlashish sari hayot va vijdonidagi dog'lar, nuqsonlar, gunohlarni ravshanroq ko'ra bilish yo'li.

Komil insonlar o'ta rostgo'y, pokiza, imonli, bilimli, haqqa intiluvchi, saxovatli, bardoshli va samimiy bo'ladilar.

«Ikki haqiqat» (diniy va falsafiy) nazariyasiga ko'ra, fan ochgan, kashf etgan yangiliklar, zohiriy bilimlar–ilmiy haqiqatga, payg'ambarlar vositasida alloh yuborgan vahiy orqali bildirilgan botiniy bilimlar–diniy haqiqatga olib boradi.

Komil inson ana shu ikki haqiqatni o'zlashtirishi orqali chin haqiqatni egallaydi. Ya'ni falsafa atrofdagi olamni aql–idrok bilan bilish orqali haqiqatni ochib bersa, ilohiyot esa vahiyga asoslangan bilim orqali chin haqiqatni ochib beradi.

Bu diniy va falsafiy bilimlar bamisoli qushni ikki qanotidirki, qush shu ikki qanotsiz ucha olmaganidek, inson ham bu ikki ilmni bir-biriga uyg'unlashtirib o'rganmay turib, chin haqiqatni, hayot mohiyatini to'liq anglab eta olmaydi va oliy kamolatga erisha olmaydi» [12].

Demak, faqat diniy bilimlarni o'zlashtirib, dunyoviy bilimlarga e'tibor bermaslik yoki aksincha yo'l tutish kishi turmush tarzining to'g'ri yo'lidan adashtirishi mumkin. Shu sababli ham bu ikkala bilimni uyg'un o'zlashtirgan, ma'naviy va moddiy boyliklarni yaratishga intilgan insongina ikki dunyo saodatiga erishadi. Bunga ko'plab dalillar keltirish mumkin. Bu erda ayrim dalillar keltirish bilan chegaralanamiz.

1. Muhammad muso Al–Xorazmiy haqida. Al–Xorazmiyning «arifmetika» asarining boshlanishida quyidagi fikr keltirilgan: «rahimli va mehribon tangriga loyiq maqto'vlar aytaylik, unga minnatdorchiligimizni bildiraylik va uni ko'klarga ko'tarish bilan maqto'vini oshiraylik, unga ibodat qilaylik, toki, u bizni adolat sari boshlab, haqiqat yo'lidan olib borish va bizga 9 ta harfdan iborat hind **qisobi** haqida bayon etishga qilgan qarorimizga yordam bersin» [18].

2. Abu Ali ibn Sino haqida. Uning tarjimai holida quyidagi ma'lumot uchraydi: «agar biror masaladan boshim qotib, qiyosda o'rtacha ta'rifni topa olmasam, jome' masjidga borardim va nomoz o'qib, yaratuvchiga yolvorardim, natijada qorong'u narsalar menga oydinlashar, mushkullar oson bo'lar edi» [9].

3. Mirzo Ulug'bek haqida. U olim, podshoh va ilm–fan rivoji homiysi bo'lish bilan birgalikda o'sha davr ta'lim tizimining bosh islohotchisi ham bo'lgan. Demak, u ma'rifatparvar inson bo'lgan va tarixda o'chmas iz qoldirgan.

Ulug'bek madrasasining tashkil etilishidagi ommaviy ta'limni amalga oshirilishi o'ziga xos dorilfunun vazifasini bajargan bo'lsa, o'sha davrda dunyodagi ko'zga ko'ringan olimlarni to'plab ilmiy tadqiqotlarni olib borish esa o'ziga xos akademiya edi.

Ulug'bek madrasasida ilohiyot ilmlari («qur'oni karim», «hadisi sharif», «tasvir», «fiqiq», «din va shariat qonun qoidolari») bilan birgalikda matematika (arifmetika, algebra, geometriya, trigonometriya), jug'rofiya, ilmi aruz, ilmi qofiya, arab tili va shu kabi ko'plab dunyoviy ilmlar ham o'qitilgan.

Mirzo Ulug'bek Buxoroda qurdirgan madrasa peshtog'iga «ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir», degan bitikni yozdirib qo'ygan. Ana shuning o'zi ham odil podshohning ikki ilmni ham nihoyatda ulug'laganligidan dalolatdir.

4. Abu Nasr Farobiy haqida. U o'z asarlarida insonni xudoning tabiiy–moddiy hilqati sifatida voyaga etkazish va bunda ilmiy asoslarga suyanish masalasini jiddiy ilgari suradi. Uning «fozil odamlar shahri» asari inson tarbiyasida katta boy manba bo'lib hisoblanib, u allaqachon mashhur bo'lib ketgan. Shuning bilan birga uning «fazilat, baxt va kamolat haqida» deb nomlangan asari ham tarbiya masalasida muhim asos bo'lib hisoblanadi. Unda jumladan, shunday deyiladi: «har bir inson boshidan komil bo'lib tug'ilmaydi, ammo tug'ma ravishda o'ziga xos ichki shuurga ega bo'ladi va bu shuur bilan bosqichma–bosqich komillikka jiddiy ahd bilan intiladi».

Demak, tarbiya jarayonini tartibli, ya'ni bosqichma–bosqich olib borilishi lozim.

Bunday dalilu isbotlarni ko'plab keltirish mumkin. Komil inson tarbiyasi O'rta Osiyoda Ahmad Yassaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abu Nasr Farobiy va boshqalarda yanada rivojlantirilgan.

11. Olim.

Olim – dunyoni yaratgan haqni, uning sirini, umumiy dunyoni aql bilan bilish yo'lida kamolatga etgan kishilar.

Orif – ko'ngil, ya'ni ruh bilan bilib yuksaklikka ko'tarilgan kishilar.

Fozil (arabcha so'z) – fan asoslarini yaxshi egallab olgan kishi, olim. [43].

12. Alloma.

Allolma – arabcha so'z bo'lib, O'rta Osiyo xalqlarida ilm–fanning bir yoki bir necha sohasini mukammal egallagan kishi, bilimdon shaxs.

Demak, alloma qomusiy ilm sohibi bo'ladi, uning tevarak–atrofdagi olamga munosabati va unda o'zining tutgan o'rni asosidagi falsafiy, siyosiy, ilmiy, diniy, aqliy va estetik qarashlari mujassamlashgan (uyg'unlashgan) bo'ladi.

Allomalar komillik sari intiladi. Ular ayni vaqtda mutafakkirlik fazilatlarini sohibi hamdir. Ularda ma'naviyat kuchli bo'ladi, ya'ni ilmsevar, pokiza, imonli, haqqa intiluvchi, bardoshli va samimiylilik fazilatlarini yuksak bo'ladi.

Alloma – ilm–ma'rifatda yetuk shaxsdir.

13. Donishmand.

«donishmandlik nima? Tartib–intizomlilik. Donishmand bo'lay desang, hamma narsani joy–joyiga qo'y. O'tkinchi shuhratdan oqil kishining kundalik ishidan tartib a'loroq» (Pifagor) [75].

Donishmandlik timsoli afltun ekanligi bizga yozma manbalardan ma'lum. Donishmandlik maqomiga erishganlar keraksiz buyum va fikrlarga chalg'imasliklari uchun boshqa narsa va ilmlarga qiziqmasliklari joiz, degan mashhur yunon faylasufi Antisfen [12].

Donishmand (fors-tojikcha so'z) – ko'p narsa biladigan bilimdon, olim, dono. [42].

Dono (fors-tojikcha so'z) – aql-zakovatli, donishmand, oqil; aql-zakovat bilan aytilgan, qilingan aql-zakovatdan dalolat beradigan, dono. [42]. «inson hayotini badiiy timsollar vositasida bozor yoxud olimpiya o'yiniga qiyoslash mumkin. Bozordagi sotuvchiyu, xaridor foydani o'ylasa, o'yin ishtirokchisi faqat shon-shuhratni mashhur bo'lishni ko'zlaydilar. Odamlarning aksariyati umrini boylik va shuhrat orttirish bilan o'tkazgan bir paytda, shunday toifa insonlar ham borki, ular bozor va o'yingohni chetdan turib kuzatadi, hayotini tabiat sir-sinoatlarini idrok etish, haqiqatni izlashga bag'ishlaydi. Bu toifa kishilar sofistlarga (safsatabo zlarga) o'xshab donishmandlikni da'vo qilmaydi, ular o'zini faqat donishmandlikka intiluvchi-faylasuf deb biladi. Zero, donishmandlik – parvardigorgagina xos hislat, inson esa unga intilishi mumkin xolos» [75].

Chunki, bugungi kun yoshlari, talabalari ertangi kunda jamiyatning faol a'zosi, boshqaruv tizimining yetakchisi bo'lib faoliyat yuritadi. Shuni hisobga olgan holda, talabalar inson psixologiyasini o'rganmay turib, ular bilan muloqotga kirishish bir qator noqulayliklarni yuzaga keltirib chiqarishini anglab etishi zarur. Kishilik jamiyatida o'z o'rniga, o'z mavqeyiga ega bo'lishni istagan har bir yosh insonning ruhiy holatiga, bilish jarayonlariga taa'lluqli bo'lgan bilimlarni egallashlari zarur bo'ladi. Buni amalga oshirishda biz tomondan taklif qilinayotgan talabalarni bilish jarayoniga tayyorlashga didaktik materiallar–deb nomlangan yetmish savolga–yetmish javoblar bo'limi yordam beradi.

TALABALAR BILISH JARAYONINI SHAKLLANTIRISHGA DIDAKTIK MATERIALLAR.

1-savol. Psixika nima ?

Javob. Psixik (ruhiy) hodisalarning butun majmui odatda psixika degan bir so'z bilan ataladi.

Psixika – bu inson ruhiyatining shunday holatiki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni ham) ongli tarzda aks ettirishimizni, ya'ni bilishimiz, anglashimizni taminlaydi.

Psixika deb – bizning ichki dunyo, ya'ni obrazlar, fikrlar, intilish, qarashlarimiz va boshqalarga aytiladi.

Psixika – yuksak darajada tashkil topgan materiya (miya)ning ob'yektiv borliqni aks ettirish va shuning asosida shakllangan psixik obrazlar orqali maqsadga muvofiq sub'yektning faoliyati va uning hatti-harakatlarini boshqarishdan iboratdir.

2-savol. Psixologiya nimani o'rganadi?

Javob. Psixologiya konkret fan sifatida psixik faoliyat qonuniyatlarini, uning ro'y berishi mexanizmlari va omillarini o'rganuvchi fandır.

Psixologiya shaxsga xos bo'lgan barcha xilma-xil individual xususiyatlarni hamda barcha odamlarga xos bulgan umumiy psixik sifatlarini o'rganadi.

Psixologiya – odamning ob'yektiv borliqni sezgi, idrok, tafakkur, tuyg'u–hissiyot va boshqa psixik hodisalar orqali aks ettirish jarayonini o'rganadigan fan.

3-savol. Psixologiyani predmetini nima tashkil qiladi?

Javob. “Psixologiya” so'zi ikkita grek so'zlaridan – “psyche” – jon, ruh va “logos” – ta'limot, ilm so'zlaridan iborat bo'lib, an'anaviy ma'noda inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlar uning ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlar uning predmetini tashkil etadi.

4-savol. Psixologiyani ahamiyati nimadan iborat?

Javob. Boshqa fanlarni o'rganish kabi, psixologiyani o'rganishni ham avvalo bilish, ma'lumot olish uchun ahamiyati bor. Biz psixologiyani o'rganib, voqelikning g'oyat katta va sifat jihatidan o'ziga xos sohasi, – psixik hayot sohasi haqida bilim olamiz.

Psixologiyani o'rganish odamni psixika haqidagi va psixik hayotning xilma–xil hodisalari haqidagi bilimlar bilan boyitibgina qolmay, shu bilan birga odam aqlini ham o'stirishga yordam beradi.

5-savol. Psixologiyani nazariy va amaliy vazifalari nimadan iborat?

Javob. Hayot, psixologiya zimmasiga murakkab nazariy va amaliy vazifalar yuklaydi. Psixologiyani asosiy nazariy vazifasi psixik faoliyatning mohiyatini, uning sodir bo'lish va rivojlanish qonuniyatlarini tushuntirishdan iboratdir. Insonning barcha hayoti va faoliyati jarayonida uning psixikasini o'rganish va boshqarish psixologiyani amaliy vazifalari hisoblanadi.

6-savol. Psixologiyani eng muhim vazifalari nimalardan iborat?

Javob. Psixologiyani eng muhim vazifalaridan biri barcha psixik hodisalarni o'rganish va tushuntirib berish, ya'ni ob'yektiv (ongimizdan tashqarida va unga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan narsa demakdir) qonuniyatlarini ochib berishdir, psixik hodisalar mana shu ob'yektiv qonuniyatlar asosida vujudga keladi, rivojlanadi va tarkib topadi.

7-savol. Bilish jarayonlariga nimalar kiradi?

Javob. Bilish jarayonlariga avvalo bilish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hodisalar: sezgi, idrok, xotira, tafakkur, nutq, xayol kiradi.

Bilish – psixik aks ettirish jarayoni bo'lib, bilimlarni egallash va uni o'zlashtirishni ta'minlaydi.

8-savol. Inson nerv sistemasi necha bo'limdan iborat?

Javob. Inson nerv sistemalari uch bo'limdan: markaziy, periferik va vegetativ nerv sistemalaridan iborat bo'ladi.

9-savol. Markaziy, periferik, vegetativ nerv sistemalarining qanday vazifalarni bajaradi?

Javob. Bosh miya va orqa miyani o'z ichiga olgan markaziy nerv sistemasi tashkilotchilik va boshqaruvchilik vazifasini o'taydi.

Periferik nerv sistemasi markaziy nerv sistema bilan organizmning turli qismlarini bog'laydi.

Periferik nerv sistemasi tolalari bo'ylab markaziy nerv sistemasidan turli organlarga (to'g'ri aloqa), shuningdek, organlardan markaziy nerv sistemasiga (qayta aloqa) nerv signallari beriladi.

Vegetativ nerv sistemasi orqa miya bo'ylab va turli ichki organlarda, uning markazlari esa markaziy nerv sistemasining turli bo'limlarida-orqa, uzunchoq, o'rta va oraliq miyada joylashgan nerv tugunchalaridan iboratdir. Nerv sistemasining bu bo'limini, qon aylanish, ovqat hazm qilish, ichki sekretsiya bezlari organlarining faoliyati tartibga solib turadi.

Inson nerv sistemasi organizmni o'rab turgan muhit bilan bog'laydi, ichki organlar o'zaro munosabatini boshqaradi va nerv sistemasining turli bo'limlari aro aloqani amalga oshiradi.

Nerv sistemasining vazifasi tirik organizmni favqulotda murakkab, o'z-o'zini boshqaruvchi sistema deb qarash imkonini beradi.

10-savol. Refleks nima.

Javob. Refleks – hayvonlar va odam nerv sistemasi faoliyatining asosiy mexanizmidir. Sezgi organlarining ta'sirlanishiga javoban nerv sistemasining ko'rsatadigan reaksiyasi refleks deb ataladi.

11-savol. Reflekslar paydo bo'lish jihatidan necha xil bo'ladi?

Javob. Reflekslar paydo bo'lishi jihatidan tug'ma va keyin orttirilgan reflekslar, ya'ni I.P. Pavlovning klassifikatsiyasiga ko'ra, shartsiz reflekslar va shartli reflekslar bo'ladi.

12. Savol. Shartli reflekslar deb nimaga aytiladi?

Javob. Shartli reflekslar hech vaqt organizmga nasliy yo'l bilan tayyor holda berilmaydi. Shartli reflekslar organizmning individual (shaxsiy) hayoti, ya'ni tug'ilgandan keyingi hayoti davomida orttiriladi.

13. Savol. Shartsiz reflekslar deb nimaga aytiladi?

Javob. Shartsiz reflekslar organizmga tug'ma ravishda, ya'ni nasliy yo'l bilan tayyor holda berilgan va nisbatan deyarli o'zgarmaydigan reflekslardir.

14-Savol. Oliy nerv faoliyatining nechta asosiy jarayonlari mavjud va ular qaysilar?

Javob. Qo'zg'alish va tormozlanish oliy nerv faoliyatining asosiy jarayonlari hisoblanadi.

Qo'zg'alish – har qanday aktivlikning, shu jumladan, shartli reflektor aloqaning ham asosida yotuvchi nerv jarayonidir. Qo'zg'alish nerv hujayralari faol holatini xarakterlab beradi.

Tormozlanish – qo'zg'alishga nisbatan qarama-qarshi ahamiyatga ega bo'lib, reflektor aloqa o'rnatish funksiyasini sekinlashtiruvchi, to'xtatib qo'yuvchi yoki tormozlantirib qo'yuvchi nerv jarayonidir.

15-savol. Akademik I.P. Pavlov ta'limotiga ko'ra, organizmga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan necha xil signallar sistemasi mavjud va ular qaysilar?

Javob. Akademik I.P. Pavlov ta'limotiga ko'ra, organizmga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ikki xil signallar sistemasi mavjud. Bu signallar sistemasini odatda birinchi va ikkinchi signallar sistemasi deb yuritiladi.

Tashqi muhitdagi turli narsalarning sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etishi orqali ularning ongimizda aks ettirilishi, birinchi signallar sistemasini tashkil etadi. Odamlarda narsalarning bevosita ta'sir etishi orqali aks ettirishdan tashqari, bevosita aks ettirish sistemasi yuzaga keladi. Bu faqat odamgagina xos bo'lgan ikkinchi signallar sistemasidir.

Tashqi muhitdagi turli narsalarni bevosita, ya'ni so'zlar (shu narsalarning nomlari) orqali ongimizda aks ettirilishi ikkinchi signallar sistemasini tashkil qiladi.

16. Dinamik stereotip nima? Va u qanday xossa va xususiyatga ega?

Javob. Dinamik stereotip – organizmning takrorlanib turadigan bir xil tashqi ta'sirlarga moslanishi demakdir. Agar sharoit o'zgarsa, agar mavjud dinamik stereotipga mos kelmaydigan yangi qo'zg'ovchilar paydo bo'lsa, bu stereotip o'zgaradi, qayta quriladi.

Dinamik stereotip – hayot jarayonida paydo bo'lgan shartli reflektor bog'lanishlarning nisbatan barqaror sistemasidir.

Dinamik stereotipning hosil bo'lishi, ya'ni kompleks qo'zg'ovchilarning bir qancha marta ta'sir etishi natijasida hosil bo'lgan barqaror nerv bog'lanishlari sistemasi bilan izohlanadi. Boshqacha qilib aytganda, dinamik stereotip bu sistemali ravishda takrorlanuvchi qo'zg'atuvchilar kompleksi ta'siri natijasida bosh miya po'stlog'iga mustahkamlanib qolgan qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining muayyan sistemasidir. Dinamik stereotip bir qancha xossa va xususiyatlarga egadir.

1. Dinamik stereotipni hosil qilish uchun muayyan nerv mehnati va vaqt talab qilinadi. Faqat qo'zg'ovchilar kompleksining ko'p martalab ta'sir qilish natijasidagina nerv bog'lanishlari va jarayonlarining barqaror sistemasi hosil qilinadi.

2. Hosil qilingan dinamik stereotip barqaror, hatto o'zgaras tusga kiradi. Uni (yangi stereotipni) qayta qurish, almashtirish uchun, I. P. Pavlov ta'kidlanganidek, “katta nerv mehnati” talab qilinadi.

3. Dinamik stereotipning asosiy xususiyati shundan iboratki, u bir turdagi qo'zg'atuvchilarga nisbatan qaytariladigan barcha reaksiyalarni nihoyatda yengillashtiradi. Nerv sistemasining ortiqcha energiya sarflashini “yengillash” imkoniyati yaratiladi, bu esa umuman bosh miya po'stlog'i faoliyatidagi tejamlilikni ta'minlaydi.

17-savol. Analiz nima?

Javob. Analiz (yunon. *analus*–parchalash, bo'lish, tahlil) – narsa va hodisalarni fikran tarkibiy qismlarga ajratishdan iborat bo'lgan aqliy operatsiya. Masalan, psixologiyada ong hodisasi analiz qilinarkan ekan, u aql, iroda va hissiyot deb uch tarkibiy qismga bo'linadi. Analiz jarayonida butunning bo'laklarga nisbatan munosabati aniqlanadi.

18-savol. Analizator nima?

Javob. Analizator – tashqi va ichki muhitdan keladigan taasurotlarni qabul qilib olib, fiziologik jarayon bo'lgan qo'zg'alishni psixik jarayonga, ya'ni sezgilarga aylantiruvchi nerv mexanizmlari sistemasi. Analizator uch qismdan iborat bo'ladi: taasurotni qabul qilib oluvchi retseptorlar, retseptorlarda hosil bo'lgan qo'zg'alishni tegishli nerv markazlariga eltadigan o'tkazuvchi nerv yo'li va qo'zg'alishni psixik jarayonga aylantiruvchi orqa miya yoki bosh miyadagi tegishli nerv markazlari.

Analizatorning biror qismi zararlangan ham, tegishli sezgi hosil bo'lmaydi. Barcha sezgi organlarimiz analizatorning retseptor qismlarini tashkil qiladi. Analizator haqidagi ta'limot I. P. Pavlov tomonidan yaratilgan.

19-savol. Ontogenez nima?

Javob. Ontogenez (yunon. autos—o'zim, lat. genesis—kelib chiqish) — organik dunyoning tarixiy taraqqiyoti, organizmning taraqqiyoti, ichki moddiy bo'lmagan omillari ta'sirida sodir bo'ladi.

Ontogenez — har bir individning hayoti davomida uning tug'ilishdan tortib, to o'lgunga qadar sodir bo'lgan o'zgarishlar yig'indisidir.

20-savol. Filogenez nima?

Javob. Filogenez—organizmning oddiy shakllaridan tortib, hozirgi zamon kishisiga qadar butun bir biologik rivojlanish jarayonida yuz bergan o'zgarishlardir.

21-savol. Tirik organizmlarda nechta uzliksiz o'zgarib turuvchi hayot sharoitiga muvofiqlashuvini ta'minlaydigan harakat formalari mavjud va ular qaysilar?

Javob. Harakatning instinktiv shakli, harakatning individual shakli va harakatning intellektual shakli bo'lib, bulardan harakatning instinktiv shakli evolyutsion taraqqiyot davomida yuksak rivojlanishga erishgan hayvonlar maydonga kelishi bilan birga ularning tashqi olamni aks ettirishlari, ya'ni o'zgaruvchan muhitga muvofiqlashuvlari ham murakkablashib boradi. harakatning instinktiv shakli ana shunday tashqi muhitga muvofiqlashuvning alohida shakllaridandir.

Instinktiv harakat deganda biz hayvonlarga tug'ma yo'l bilan tayyor holda beriladigan va ularning tashqi olamga muvofiqlashuvini ta'minlaydigan harakatlar shaklini tushunamiz.

Hayvonlarning instinktiv harakat shakllari nihoyatda mustahkamlangan, nisbatan juda sekin o'zgaradigan harakatlardir.

Evolyutsion taraqqiyot davomida murakkab taraqqiy etgan hayvonlarda, ya'ni umurtqa suyakli, va sut emizuvchi hayvonlarda harakatning individual shakllari yuzaga keldi. Agarda harakatning instinktiv shakli organizmlarning filogenetik, ya'ni nasliy taraqqiyotlari bilan bog'liq bo'lsa, harakatning individual shakllari esa organizmlarning ontogenetik, ya'ni individual taraqqiyotlari bilan bog'liqdir.

Harakatning individual shakllari xuddi harakatning instinktiv shakllari kabi hayvonlarning doimo o'zgarib turuvchi tashqi muhitga muvofiqlashuvini ta'minlovchi mexanizmlardandir.

Evolyutsion taraqqiyotning yuksak bosqichidagi ayrim hayvonlarda harakatning intellektual shakli paydo bo'ladi. Bu yuksak taraqqiyotga erishgan maymunlar, delfinlar va itlardagi odam ongiga o'xshash farosat bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakat shakllaridir.

22-savol. Instinkt nima?

Javob. Hayvonlar xulqining ma'lum darajadagi murakkab, nasldan naslga o'tuvchi, tur xarakteriga ega bo'lgan formalari instinktlar deb ataladi.

23-savol. Ong nima?

Javob. Ong – bu anglash demakdir. Ong – odamlarning ijtimoiy–tarixiy faoliyati vositasida paydo boʻlib, ob'ektiv borliqni psixik aks ettirishning faqat insongagina xos yuqori usuli.

Ongning birinchi xarakteristikasi uning turli bilimlar yig'indisidan iborat ekanligidir. Ongning ikkinchi xarakteristikasi odamning o'z-o'zini anglash jarayonida namoyon bo'ladi. Odam tirik mavjudotlar tarixida birinchi bo'lib, ob'ektiv olamdan ajralib chiqdi va o'zini tevarak atrofdagi muhitga qarama–qarshi qilib qo'ydi. Odam “men” degan tushunchani “men emas” degan tushunchadan ajratadigan bo'ldi. Shu tariqa odam ongli mavjudot sifatida o'z–o'zini anglay boshladi.

Ma'lumki, odam har doim biror faoliyatda bo'ladi. Xar qanday faoliyatning maqsadi va motivlari inson ongi bilan belgilanadi. Odam biron faoliyatga kirishishdan oldin maqsad va motivlarni chamalab ko'radi, ma'lum qarorga keladi, ya'ni o'z irodasini ishga soladi. Faoliyatga kirishishdan oldin maqsad va motivlarni belgilash ongning uchinchi xarakteristikasi hisoblanadi.

Ongsizlik – kishi ongiga borib yetmagan psixik jarayonlar majmui.

24-savol. Shaxs so'zi zaminida nimani tushunmoq kerak?

Javob. Jamiyatning a'zosi hisoblangan va ong egasi bo'lgan har bir konkret odam shaxsdir. Shaxs hamma vaqt muayyan shaxsiy, faqat o'zigagina xos bo'lgan murakkab individual sifatlar va xususiyatlarning va murakkab xususiyatlar birikmasining egasidir. Bu sifatlar va xususiyatlar inson xulqida, boshqa kishilarga munosabatda, uning irodasi va xarakter hislatlarida, qobiliyatlari, munosabatda, uning irodasi va xarakter hislatlarida, qobiliyatlari, mayllari va qiziqishlarida ifodalanadi.

Shaxs – ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyat sub'ekti tariqasidagi odam individi.

25-savol. Dunyoqarash deb nimaga aytiladi?

Javob. Dunyoqarash – odamning tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari haqidagi qarashlari, tasavvurlari va tushunchalari sistemasidir.

26-savol. Ehtiyoj nima va uning qanday turlari bor?

Javob. Biron narsaga bo'lgan muhtojlik ehtiyoj deyiladi. Ehtiyojlar, ularning xatto eng oddiy turlari ham insonlarga, ham xayvonlarga xos bo'lib, organizmning modda almashinuvi va hayotini tutib turish bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Ehtiyojlar muhtojlikni qondirishga aloqador bo'lgan taasurotlarga nisbatan yuqori darajadagi qo'zg'aluvchanligida namoyon bo'ladi. Inson ehtiyojlarini moddiy va ma'naviy ehtiyojlar deb turlarga bo'lish mumkin. Ular kelib chiqish jihatidan hayot davomida hosil qilingan bo'lishi ham, tabiiy, tug'ma bo'lishi ham mumkin.

Moddiy ehtiyojlarga avvalo oziq–ovqatga, kiyim– kechakka, uy–joyga bo'lan ehtiyojlar, shuningdek ishlatiladigan ma'lum mehnat qurollariga, aloqa vositalari (asbob–uskunalar, mashinalar, kitoblar) kabilardan foydalanishda hosil qilingan ehtiyojlar kiradi.

Ma'naviy ehtiyojlarga boshqa kishilar bilan muomala qilishga, mehnat qilishga bo'lgan ehtiyojlar, madaniy ehtiyojlar kiradi.

Ehtiyoj – odam va hayvon faolligining asosiy manbai; aniq sharoitlar bilan bog'liq zaruriyatning ichki holati.

27-savol. Motiv nima?

Javob. Motiv – bu ma'lum ehtiyojlarni (moddiy, ma'naviy) qondirish bilan bog'liq bo'lgan qandaydir faoliyatga moyillikdir.

Motiv – konkretroq tushuncha bo'lib, u shaxsdagi u yoki bu xulq-atvorga nisbatan turgan moyillik, hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi. Motiv – ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi istak.

28-savol. Motivatsiya nima?

Javob. “Motivatsiya” tushunchasi “motiv” tushunchasidan kengroq ma'no va mazmunga ega.

Motivatsiya – inson xulq-atvori, uning bog'lanishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi. Bu tushuncha u yoki bu shaxs xulqini tushuntirib berish kerak bo'lganda ishlatiladi, ya'ni: “nega?”, “nima uchun?”, nima maqsadda?”, “qanday manfaat yo'lida?” degan savollarga javob qidirish–motivatsiyani qidirish demakdir. Demak, u xulqning motivatsion tasnifini yoritishga olib keladi.

29-savol. Motivlarning nechta turi mavjud?

Javob. Turli kasb egalari faoliyati motivlarini o'rganishda motivlar xarakterini bilish va ularni o'zgartirish muammosi ahamiyatga ega. Shunday motivlardan biri turli xil faoliyat sohalarida muvaffaqiyatga erishish motivi bo'lib, bunday nazariyaning asoschilari amerikalik olimlar D. Maklelland, D. Atkinson va nemis olimi X. Xekxaufenlar hisoblanadi.

Ularning fikricha, odamda turli ishlarni bajarishini ta'minlovchi asosan ikki turdagi motiv bor: muvaffaqiyatga erishish motivi hamda muvaffaqiyatsizliklardan qochish motivi. Odamlar ham u yoki bu turli faoliyatlarga kirishishda qaysi motivga mo'ljall qilishlariga qarab farq qiladilar. Masalan, faqat muvaffaqiyat motivi bilan ishlaydiganlar, oldindan ishonch bilan shunday ish boshlaydilar, nima qilib bo'lsa ham yutuqqa erishish ular uchun oliy maqsad bo'ladi. Ular hali ishni boshlamay turib, yutuqni kutadilar va shunday ishni amalga oshirishsa, odamlar ularning barcha harakatlarini ma'qullashlarini biladilar. Bu yo'lda ular nafaqat o'z kuch va imkoniyatlarini, balki barcha tashqi imkoniyatlar-tanish-bilishlar, mablag' kabi omillardan ham foydalanadilar.

30-savol. Qiziqish nima?

Javob. Qiziqish deganda, odatda, shaxsning ko'pincha bilishmaslagida ifodalanadigan, predmet va hodisalarga nisbatan bo'lgan maxsus munosabati tushuniladi. Qiziqish – shaxsning bilish faoliyati bilan bog'liq ijobiy emotsiyalarga boy yo'nalishlaridan biri.

31-savol. Ideal nima?

Javob. Ideal deganda, inson intilayotgan narsalarning yoki kimsalarning obrazi tushuniladi.

32-savol. Ijtimoiy norma nima?

Javob. Ijtimoiy norma–shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq-atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlar talablaridir.

33-savol. Ijtimoiy sanksiya deb nimaga aytiladi?

Javob. Ijtimoiy sanksiyalar – normalarning shaxs xulqida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va rahbatlantirish mexanizmlari bo'lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri ob'ektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz., Masalan, yuqoridagi misolda, agar jamoat transportida katta mo'ysafid kishiga o'rin bo'shatishni norma deb qabul qilmagan o'smirlarga nisbatan ko'pchilikning ayblov ko'zi bilan qarashi, yoki og'zaki tanbeh berishi, juda kam hollarda o'zini bebosh tutayotgan o'smirlarning qo'lidan tutib, nima qilish kerakligini o'rgatib, “ko'zini moshday qilib ochib qo'yish” ijtimoiy sanksiyaning hayotdagi bir ko'rinishidir.

34-savol. Rol nima?

Javob. Rol – shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatlardagi huquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo'lsak, uni bajarish yoki bu oliy o'quv yurtida taxsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a'zo bo'lish, stipendiya olib, ma'muriyatning ijtimoiy himoyasida bo'lish kabi qator huquqlar bilan birgalikda o'sha oliygoh ichki tartib-intizomi normalariga so'zsiz bo'ysinish, darslarga o'z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o'zlashtirish normalarini bajarish, amaliyotda bo'lish, dekanatning bergan jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi qator burchlarni ham o'z ichiga oladi. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan “farzandlik” roli (ota va ona, yaqin qarindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi. Ya'ni, konkret shaxsning o'ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli-tuman ijtimoiy rollarning xarakteridan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, kimdir “tartibli, ba'mani, fozil, axloqli va odobli” deyilsa, kimdir – be'mani, bebosh, o'zgaruvchan, ikkiyuzlamachi (ya'ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa yerda-betartib) degan hayotiy mavqega ega bo'lib qoladi.

35-savol. Refleksiya deb nimaga aytiladi?

Javob. Kishi bilimlarining o'z-o'ziga, o'zining ichki olamiga, psixik sifatlari va psixik holatlariga qaratilishidir. Odam o'zgalarga qarab, go'yoki oynada o'zini ko'rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon psixologiyada refleksiya deb ataladi. Uning mohiyati – aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirishdir. Refleksiya “Men” – obrazi egasining ongiga taaluqli jarayondir.

36-savol. Shaxsning yo'nalganligi deb nimaga aytiladi?

Javob. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs faoliyatini yo'naltirib turadigan va real vaziyatlarga nisbatan turg'un, barqaror motivlar majmuiga ega bo'lishlik, shaxsning yo'nalganligi deb ataladi.

37 -savol. Diqqat nima?

Javob. Kishi ongining bir vaqtning o'zida hech narsaga chalg'imasdan voqelikdagi muayyan predmet yoki hodisalarga yo'naltirilishi diqqat deb ataladi.

Diqqat – bir vaqtning o'zida ongining ma'lum bir ob'ektdan ikkinchi ob'ektga yo'naltirilishi va to'planishi bo'lib, ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriydan keyingi turlarga ajratiladi.

38-savol. Diqqatning nechta xususiyatlari bor va ular qaysilar?

Javob. Diqqat bir qancha xususiyatlarga ega bo'lib, ulardan asosiylari – diqqatning ko'chuvchanligi, bo'linishi, ko'lami, kuchi va barqarorligidir.

Bu xususiyatlarning qanchalik yaqqol ifodalanishiga qarab, har turli faoliyat jarayonida ayrim odamlar diqqatining ma'lum bir (ijobiy yoki salbiy) sifatlari belgilanadi.

Diqqatning ko'chishi deganda biz uning bir narsadan, ikkinchi boshqa bir narsaga, faoliyatning bir turidan, boshqa turiga o'tishini tushunamiz. Masalan, odam o'z diqqatini kitob o'qishdan surat ko'rishga, surat ko'rishdan esa o'z fikrlarini bayon etishga ko'chirishi mumkin.

Odamning diqqati ayni bir vaqtda faqat bitta narsagina emas, balki ikkita yoki uchta narsaga ham birdaniga qaratilishi mumkin. Demak, diqqatning bo'linishi deganda, biz ayni bir vaqtda diqqatimizning ikki yoki uch narsaga qaratilishini tushunamiz.

Diqqatning ko'lami – diqqatga ega qisqa vaqt ichida (go'yoki birdaniga) siqishi mumkin bo'lgan narsalar soni bilan belgilanadi. Diqqat ko'lami jihatidan tor yoki keng bo'lishi mumkin.

Diqqatning kuchi turli darajada bo'lishi mumkin. Diqqat kuchli va kuchsiz bo'lishi mumkin. Diqqat qanchalik kuchli bo'lsa, u diqqat ob'ektiga shunchalik ko'p to'planadi, boshqa, ayni vaqtda keraksiz bo'lgan narsalarga shunchalik kam chalg'iydi. Biz tashqi tomondan diqqatning kuchi to'g'risida asosan, uning chalg'ish darajasiga qarab hukm chiqaramiz. O'quvchining diqqati har xil, hatto kuchsiz darajadagi chetki qo'zg'ovchilardan, chunonchi, qalamning tushib ketishiga, qo'shni partadagi o'rtoqlarining pichirlashganiga, koridorga bo'layotgan gaplarga chalg'ib ketaversa – bu ayni vaqtda o'quvchining diqqati kuchsizligidan dalolat beradi. Agar o'quvchi bunday chetki qo'zg'ovchilar (ba'zan hatto kuchli qo'zg'ovchilar) ta'sirini ham go'yo “sezmay”, balki muayyan bir ishga berilib qunt bilan ishlasa, bu ayni vaqtda o'quvchi diqqatining kuchliligidir.

Tajriba qilib tekshirishda diqqatning ko'lami, odatda tekshirilayotgan odamga ayni bir vaqtning o'zida bir qancha o'zaro bog'lanmagan harflarni, so'zlarni, narsalarni va turli shakllarni ko'rsatish yo'li bilan aniqlanadi.

Diqqatning ko'chishi– bu faoliyat maqsadining o'zgarishi bilan diqqatning bir ob'ektning ikkinchisiga o'tishi demakdir.

Diqqatning tebranishi – bu diqqatning muayyan ob'ektga yana qaytishi yoki kuchayishiga bog'liq holda vaqti-vaqti bilan qisqa muddatli chalg'ishi yoki bo'linishidir.

Diqqatning kengligini belgilovchi boshqa birxususiyati uning taqsimlanishi, ya'ni kishining o'z diqqatini bir vaqtning o'zida bir necha obekt yoki faoliyat turlariga qarata olish qobiliyatidir.

Chalg'ish – diqqatning barqarorligiga qarama-qarshi bo'lgan holatdir.

Eng kuchsiz diqqat, odatda, tarqoq diqqat parishon diqqat yoki to'g'ridan – to'g'ri parishonlik deyiladi. Parishonlik odamning o'z diqqatini biron–bir muayyan ishda tutib tura olmasligidir.

Parishonlik – eng kuchsiz diqqatdir, miya po'stida qo'zg'alon joyning kuchsiz bo'lishligidir.

39-savol. Sezgi deb nimaga aytiladi?

Javob. Sezgi organlarimizga ta'sir etadigan narsalardagi ayrim xossalarning miyamizda shu tariqa bevosita aks ettirishi sezgi debataladi. Sezgilar–psixik aks ettirishning oddiy usuli tariqasida hayvonlarga ham, odamlarga ham xos xususiyat bo'lib, voqelikdagi narsa va hodisalarning ayrim belgi va xususiyatlarini bilib olishni ta'minlaydi.

40-savol. Statik sezgilar deb nimaga aytiladi.

Javob. Statik sezgilar gavdamizning fazodagi holatini bilish va muvozanat saqlash sezgilari deb ataladi.

41-savol. Sezgining pastki yoki absolyut chegarasi nima?

Javob. Qo'zg'alishning salgina sezila boshlagan darajasini sezgining pastki yoki absolyut chegarasi deyiladi. Sezgi chegarasi (mutlaq chegara) – minimal kuchga ega bo'lgan qo'zg'ovchining bilinar–bilinmas ta'sirini sezishga–ezgining quyi chegarasi.

42-savol. Farq qilish chegarasi deb nimaga aytiladi?

Javob. Qo'zg'ovchilar ta'siri o'rtasidagi sezilar–sezilmas salgina farqni sezishi–farq qilish chegarasi deyiladi. Bu avvalgi qo'zg'ovchilar bilan keyingi qo'zg'ovchilar o'rtasida qandaydir farq borligini seza olishda ifodalanadi.

43-savol. Sezgining yuqori chegarasi deb nimaga aytiladi?

Javob. Qo'zg'alish kuchining o'zgarishi bilan sezgi sifatidagi og'riq tomon (yoqimsiz) ro'yo bergan sezilar–sezilmas o'zgarishga sezgining yuqori chegarasi deyiladi.

44-savol. Adaptatsiya nima?

Javob. Sezgi organlarining o'ziga ta'sir etadigan qo'zg'ovchilarga moslanishi, ko'nikishi adaptatsiya deb ataladi.

Adaptatsiya – tashqi sharoitlarga moslashish bo'lib, buning o'zi analizatorlarning o'zidagi o'zgarishlarni sezish bilan bog'liq fiziologik adaptatsiya va yangi guruhlardagi yangi faoliyat turiga moslashishdagi ijtimoiy-psixologik adaptatsiyalarga ajratiladi.

45-savol. Sinesteziya hodisasi nima?

Javob. Ba'zi kishilarning sezgilarida sinesteziya degan hodisa ko'riladi. Sinesteziya-ikki sezgining yaxlit bir sezgi bo'lib qo'shilishi demakdir (jumladan, eshitish va qo'rquv sezgilari va h.k.).

46-savol. Malaka deb nimaga aytiladi?

Javob. Malaka deb, oldin ongli bajarilib, keyinchalik avtomatlashgan ish–harakatlarga aytiladi.

Malaka – mashq qilish jarayonida ish–harakatlar bajarilishining avtomatlashgan usullari.

47-savol. Odat deb nimaga aytiladi?

Javob. Odat deb, odamning qalbiga juda chuqur o'rnashib, uning ehtiyojiga aylanib qolgan (avtomatlashgan) harakatlarga aytiladi.

48-savol. Idrok deb nimaga aytiladi?

Javob. Idrok deb narsa yoki hodisalarning inson ongiga bevosita ta'sir etishi natijasida tartibga solinib, alohida sezgilarni narsa va voqealarning yaxlit bir obrazi tarzida birlashtirib aks ettirilishiga aytiladi.

Idrok – sezgi a'zolariga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning bevosita yaxlitligicha aks ettirilish jarayoni.

49–savol. Ko'zning qanday makro harakatlari mavjud?

Javob. Ko'zning makro harakatlarini ikki tipga bo'lish mumkin: payqash va tez sakrash harakatlari.

Payqash harakatlari – o'z nomidan ma'lum bo'lishicha, silliq, tekis harakatlardir; bunday harakatlar o'rin almashtirib turgan ob'ektni uzluksiz ko'rish imkonini beradi.

Sakkadik harakatlar – o'qishda kuzatayotgan yoki harakatsiz ob'ektlarga qarayotganda ko'zning ildam sakrash harakatlaridir. Odam ko'zning sakkadik harakatlari miqdorini sanay olmaydi va odatda biror narsani o'qish yoki ko'rish jarayonida o'z ko'zining harakatlari haqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'ladi. Biz biror narsani o'qish paytida, ko'zimiz juda tezlik va izchillik bilan bir satrdan ikkinchi satrga o'tib turadi. Shuning bilan bir vaqtda ko'z harakatlarini o'lchovchi barcha ob'ektiv metodlarning ko'rsatishicha, aslida biror narsani o'qish jarayonida ko'z bir satrdan ikkinchi satrga sakrab ko'chadi va ularni ko'rib, qayd qilishda sakrashlar aralashib ketadi.

Ko'zning sakkadik harakatlari juda qisqa vaqt mobaynida amalga oshiriladi. Masalan, o'qish jarayonida qisqa sakrash o'rtacha hisob bilan 0,22 sekundda amalga oshiriladi, navbatdagi ikkinchi satrning boshiga qaytish uchun yordam beradigan uzun sakrash esa 0,04 sekund mobaynida amalga oshiriladi. Ko'z harakat qilib turgan paytda, nigohning ob'ektga qaratilishi ob'ektni ko'z orqali qayd qilishni bildiradi.

50 – savol. Illyuziya deb nimaga aytiladi?

Javob. Analizatorlarning nomukammalligi va boshqa sabablarga ko'ra, idrokda narsa va hodisalarning barqaror ravishda noto'g'ri aks ettirilishi illyuziyalar deb aytiladi. Illyuziya–barqaror xarakterga ega bo'lgan, borliq haqiqatni noto'g'ri idrok qilish.

51 – savol. Idrokning konstantligi nima?

Javob. Idrokning konstantligi narsani idrok qilish sharoitlari o'zgarib turishiga qaramay, narsaga xos bo'lgan kattalik shakl, rang va boshqa xususiyatlarning idrokimizda nisbatan bir xilda aks etishdir.

52 – savol. Xotira deb nimaga aytiladi?

Javob. O'tmish tajribaning ongimizda iz qoldirishi, saqlanishi va uni keyinchalik qayta tiklashimizdan iborat bo'lgan jarayon xotira deb ataladi.

Xotira – psixik aks ettirish jarayonlaridan iborat bo'lib, bu avvalgi bilim va tajribalarni mustahkamlash, esda saqlash va qayta esga tushirishdan iborat jarayon. quyidagi xotiralar mavjud:

- mexanik xotira, materialni ma'nosiga tushunmagan holda takrorlanishdan iborat xotira;
- operativ xotira, ma'lum faoliyatni bajarish jarayonida ifodalanadi;
- mantiqiy xotira, materialni ma'no tomonidan o'zaro bog'langan holda tushunib esda qoldirishga asoslanadi.
- ixtiyorsiz xotira, oldinga hech qanday maqsad qo'ymagan holda ustanovkasiz esda olib qolish.

- ixtiyoriy xotira, oldinga muayyan maqsad qo'ygan holda ustanovkali esda olib qolishdan iborat xotira.

- uzoq muddatli xotira, bilimlarni, shu bilan birga ko'nikma va malakalarni uzoq vaqtgacha esda saqlashni ta'minlaydi hamda g'oyat ko'p hajmdagi axborotlarni esda tutish bilan xarakterlanadi.

- qisqa muddatli xotira, qisqa muddatga esda qoldirish va shu bilan birga uzoq muddatli xotirada saqlanib qolgan ma'lumotlarni tezlik bilan eslab va qayta ishlashni ta'minlaydigan xotira turi.

53 – savol. Assotsiatsiya nima?

Javob. Assotsiatsiya – bu biz idrok qilgan, ya'ni ongimizda aks ettirgan va xotiramizda mustahkamlanib qolgan turlicha narsalar hamda hodisalar o'rtasidagi bog'lanishdir. Assotsiatsiya – psixik hodisalarning o'zaro bog'lanishi bo'lib, ma'lum qonunlar bo'yicha tarkib topadi (jumladan, fazodagi yondoshlik, xronologik, o'xshashlik, qarama – qarshilik va boshqa assotsiatsiyalar).

Assotsiatsiya – (lat. associatio–birlashish, qo'shilish) – organizmdagi avvalgi turmush tajribalari bilan belgilanadigan tasavvurlar bog'lanishi, shu bog'lanishlar tufayli organizmda paydo bo'lgan muayyan tasavvurlar o'xshashlik, yondoshlik va qarama-qarshilik belgilariga ko'ra, shunga bog'liq bo'lgan boshqa tasavvurlarni hosil qiladi. Masalan, «besh joyda besh» degan iborani idrok qilganimizda, bosh miya qobig'ida shunday bir funktsional bog'lanish hosil bo'ladiki, natijada biz «yigirma besh» degan iborani eslaymiz.

Assotsiatsiya tashqi taasurotlar tufayli hosil bo'lib, voqealikdagi narsa va hodisalarning real bog'lanishlarini aks ettiradi. Inson psixik hayotida assotsiatsiyalarning ahamiyati katta: bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish assotsiatsiyalarga asoslanadi. Assotsiatsiyalarning fiziologik asoslari bosh miya yarim sharlari qobig'ida hosil bo'ladigan muvaqqat nerv bog'lanishlaridir.

54-savol. Tafakkur nima?

Javob. Tafakkur voqelikning umumlashtirilgan holda va so'z hamda o'tmish tajriba vositasida aks ettirilishidir.

Tafakkur – psixik aks ettirishning ancha umumiy va bevosita usuli bo'lib, bu narsa va hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'lanish va munosabatlarni bilib olishida ifodalanadi.

55-savol. Tafakkurning qanaqa turlari mavjud?

Javob. Tafakkurning uchta turi mavjud va ular quyidagilar: a) konkret amaliy tafakkur; b) konkret-obrazli tafakkur; v) abstrak tafakkur.

56-savol. Yaqqol – xarakatli tafakkur nima?

Javob. Yaqqol – xarakatli tafakkur – tafakkur turlaridan bo'lib, bu predmetlar bilan ishlash jarayonida ularni bevosita idrok qilishda ifodalanadi.

57-savol. Ko'ragazmali – obrazli tafakkur nima?

Javob. Ko'ragazmali – obrazli tafakkur–tafakkur turlaridan bo'lib. Bu tasavvur qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikrlashni xarakterlab beradi.

58-savol. Abstrak tafakkur nima?

Javob. Abstrak tafakkur– narsalarning mohiyatini aks etiruvchi va so'zlarda ifodalovchi tushunchalarga tayanib fikr yuritishdir. Tafakkurning bu turi dastavval har xil nazariy masalalarni yechish bilan bog'liqdir. Lekin u kundalik hayotda ham

keng qo'llaniladi. O'smirlik davridayoq va ayniqsa, katta maktab yoshida bolalarning fikr yuritishi ko'proq abstrak tafakkurga aylanib boradi.

59-savol. Sintez nima?

Javob. Sintez – qismlarni yoki xususiyatlarni fikran bir butun qilib qo'shishdir. Sintez dastlab narsa va hodisalarning qismlarini bir butun qilib qo'shishda ko'rinadi. Chunonchi, ayrim detallardan fikran biron-bir mexanizm konstruktsiya qilamiz, tovush va harflardan bo'g'inlar, bo'g'inlardan so'zlar, so'zlardan esa gap tuzamiz va hokazo.

Sintez – tafakkurning yagona analitik-sintetik jarayonida yakkadan umumiyga qarab, fikr yuritish operatsiyasi.

60-savol. Taqqoslash nima?

Javob. Taqqoslash – narsa va hodisalarni bir-biriga solishtirish, ular orasidagi o'xshashlik va farqlarni topish hamda narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlashga asoslangan fikrlash operatsiyasi.

Kuzatish va tajribalarning ko'rsatishicha, o'quvchilar, masalan, feodalistik jamiyat o'rganilganidan keyin, qullik tuzumining mohiyatini birmuncha chuqur tushunib yetadilar, kesim o'rganilganidan so'ng eganing muhim belgilarini oson ajratib oladilar. Buning sababi yuqorida keltirilgan har ikki holda ham o'quvchilarning bir-biriga yaqin bo'lgan tushunchalarni taqqoslash imkoniyatiga egaliklaridadir.

61-savol. Umulashtirish nima?

Javob. Umumlashtirish – narsa va hodisalarni umumiy va muhim belgilari bo'yicha fikran birlashtirish demakdir.

62-savol. Abstraktsiya deb nimaga aytiladi?

Javob. Narsa yoki hodisaning mazkur holda muhim bo'lmagan xususiyatlarini e'tiborga olmaslik bilan bir vaqtda, ularning muhim xususiyatlarini aniqlash abstraktsiya deb ataladi.

63-savol. Tushunish nima?

Javob. Tushunish – fikrlash faoliyatining maxsus natijasi hisoblanadi. Fiziologik nuqtai nazardan qaraganda, tushunish bosh miya po'stida tegishli muvaqqat nerv bog'lanishlarning paydo bo'shlish natijasidir.

64-savol. Hukm nima?

Javob. Hukm tafakkur formalaridan bo'lib, bu narsa va hodisalar o'rtasida o'zaro biron-bir bog'lanishlarning bor yoki yo'qligi, narsa va hodisalarning aynan mavjudligini tasdiqlash yoki inkor qilishda ifodalanadi.

Hukm narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarni aks ettiradi va gaplarda ifodalanadi. Hukm umumiy, **juz'iy** va yakka hukmlarga ajraladi, shu bilan birga, tasdiq va inkor hukm bo'lishi mumkin. Umumiy hukmda muayyan kategoriyadagi hamma narsalar haqida fikr yuritiladi. (hamma metallar o'zidan elektr o'tkazadi", "Metallar yonmaydi"). Juz'iy hukmlarda fikr ba'zi narsa va hodisalarigagina qaratilgan bo'ladi (Ba'zi daraxtlar qishda ham ko'm-ko'k bo'lib turadi", "institutimizning ba'zi studentlari sport seksiyalarida qatnashmaydilar).

65-savol. Muhokama yuritish deb nimaga aytiladi?

Javob. Haqiqatni ochib berishga qaratilgan bir qator hukmlar muhokama yuritish deyiladi. Muhokama yuritish natijasida bizda yangi hukm tug'iladi, u xulosa chiqarish deb ataladi.

66-savol. Induktiv xulosa chiqarish deb nimaga aytiladi?

Javob. Bir qator juz'iy hukmlar (asolar)ga suyanib umumiy hukm (xulosa) chiqarish mumkin. Bunday xulosa chiqarish induktiv xulosa chiqarish deb ataladi. Bu yo'l bilan tabiat va kishilik jamiyati taraqqiyotining har xil qonuniyatlari ochilgan. Bilishning induktiv metodidan o'qish faoliyatida ham foydalaniladi.

67-savol. Deduktiv xulosa chiqarish deb nimaga aytiladi?

Javob. Umumiy qoidalarni juz'iy hollarga tadbiq qilishni deduktiv xulosa chiqarish deyiladi. Masalan, o'quvchi bir xil belgili miqdorlar ko'paytirganida hosilda "plyus" belgili miqdor kelib chiqishini bilib olgach, u yoki bu konkret misolni to'g'ri yechadi, ya'ni u juz'iy holga umumiy qoidani tadbiq etadi.

68-savol. Gallyutsinatsiya deb nimaga aytiladi?

Javob. Gallyutsinatsiya (lat. hallucinatio–alaxlash, bosinqirash, valdirash) – real vokelikdagi narsa va hodisalarning analizatorlariga bevosita ta'sirisiz ongimizda turli obrazlarning hayoliy ravishda paydo bo'lishidan iborat psixopatologik hodisa.

69-savol. Afaziya nima?

Javob. Afaziya (yunon a–inkor yuklamasi, phasiya–nutq) – bosh miya qobig'ining ayrim qismlarining zararlanishi natijasida nutqning qisman yoki to'liq izdan chiqishidan iborat psixopatologik nuhsan.

Afaziya besh turli bo'ladi: dinamik afaziya, efferent motor afaziya, afferent motor afaziya, semantik afaziya, sensor afaziya.

Dinamik afaziya – jumla tuzish qobiliyatining izdan chiqishi bilan bog'liqdir.

Efferent motor afaziya – gapning grammatik strukturasi tuza olmaslik bilan xarakterlanadi.

Afferent motor afaziyada – aniq nutq artikulyatsiyasi izdan chiqib, kishi kerak tovushlarni topa olmay qoladi.

Semantik afaziya – bunda so'zlar o'rtasidagi semantik (mantiqiy–grammatik) munosabatlarni tushunish izdan chiqib, so'zlarni mantiqiy jihatdan o'zaro bog'lay olmaydi.

Sensor afaziya – bunda so'zning tovush tarkibi bilan uning ahamiyati o'rtasidagi o'zaro bog'lanish izdan chiqqan bo'lib, kishi birovlarining nutqini to'la idrok qila olmaydi. Agar afaziya holati bolalik davrda ro'y bersa, psixik taraqqiyotni ma'lum darajada sekinlashtiradi. Afaziyaga uchragan bolalarning nutq malakalarini tarkib toptirish bo'yicha maxsus lagopedik mashg'ulotlar olib boriladi.

70-savol. Amneziya nima?

Javob. Amneziya (yunon.a–inkor yuklamasi, mneia-xotira) – xotira faoliyatining qisman buzilishi yoki to'liq yo'qolishidan iborat psixopotologik nuhsan; amneziya holatda kishi ba'zan hatto o'z ismi va familiyasini unutib qo'yishi ham mumkin. Amneziya holati turli kasalliklar (masalan, meningit) yoki bosh miya qobiqining zararlanishi natijasida sodir bo'ladi.

Talabalar ongida bilish jarayoni haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga oid atamalar mazmun-mohiyati.

Abuliya (yunon. abulia–qat’iyatsizlik, jur’atsizlik, irodasizlik – muayyan psixopotologik sabablarga ko’ra irodaning bo’shashishi, kuchsizlanishi yoki to’liq yo’qolishidan iborat holat. Abuliya holatida kishi eng oddiy harakatlarni ham bajara olmay qolishi mumkin.

Abuliya jismoniy va psixik jihatdan to’g’ri rivojlanmaslikning yoki nerv sistemasining zaharlanishining natijasi bo’lishi ham mumkin.

Aks afferentatsiya (lat. afferens – olib keluvchi) – periferiyadan markazga intiluvchi nervlar orqali ishchi yoki sezgi organlarida markaziy nerv sistemasiga beriladigan qo’zg’alish impulsi yoki xabar.

Aks xabar – periferiyadagi sezgi organlaridan markaziy nerv sistemasiga tushib turadigan signallar, xabarlar.

Akmeologiya – grekcha acme–«cho’qqi, yuqori pog’ona, gurkiratuvchi kuch» ma’nolarini bildiradi va uning predmetini insonning o’z–o’zini rivojlantirish va o’zligini anglashning yuqori darajalariga yetishga o’rgatuvchi fanlar majmui tushuniladi.

Akmeologiya (grekcha akme–cho’qqi, takomil, nimaningdir yuqori boskichi, gullagan davr ma’nolarini anglatadi) – ilm–fanning shunday yangi tarmog’iki, u insonni o’z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayot – faoliyatining turli bosqichlarida o’zidagi eng kuchli qobiliyatlarini namoyon qilishining kompleks masalalarini o’rganadi.

Anketa metodi – psixologiyaning ilmiy tekshirish metodlaridan biridir. Bu metod orqali muayyan ruhiy hodisani o’rganish maqsadida tuzilgan savollarga yozma ravishda tegishli javoblar olinadi. Anketa metodi ayniqsa, shaxsning dunyoqarashi, e’tiqodi, qiziqishlari, tushuncha va tasavvurlari darajasini o’rganishda keng qo’llaniladi.

Avtoritet (lat. Autoritas–to’liq hokimiyat, buyruq berish) – obro’; shaxsdagi ko’pchilik tomonidan e’tirof qilingan fazilat, qadr–qiymat; atrofdagi boshqa kishilarga nisbatan ta’sirli, nufuzli shaxs.

Avtoritar tafakkur, obro’ga asoslangan tafakkur – muayyan fikrning chin yoki yolg’onligini ob’ektiv dalillar bilan isbotlash o’rniga inson shaxsining ijobiy yoki salbiy sifatlari bilangina cheklanib qolishdan iborat tafakkur formasi; fikrni isbotlashda boshqa shaxslar obro’sidan foydalanish. Avtoritar tafakkur ko’pincha kishining muayyan soha bo’yicha bilim darajasining cheklanganligidan va mustaqil fikrlash qobiliyatining yetarlicha o’smaganligidan dalolat beradi.

Agrafiya (yunon. a–inkor yuklamasi, grano–yozaman) – yozuvda bo’g’in va harflarni almashtirib yuborish, qoldirib ketish yoki ularni bir–biriga qo’sha bilmaslikdan iborat nutq kamchiligi; yoki qobiliyatining qisman yoki to’liq yo’qolishi. Agrafiya kattalarda bosh miya qobig’i faoliyatining buzilishi, bolalarda esa duduqlik natijasida kelib chiqadi.

Agregatsiya (olomon) – odamlarning biror yerda (masalan, ko’chada) tasodifiy hodisaning tomoshabini bo’lib turishi.

Adinamiya (Yunon. a–inkor yuklamasi, dinamis–kuch) – organizmning turli kasalliklarga chalinishi yoki uzoq vaqt ovqat yemaslik natijasida haddan tashqari holsizlanishi, zaiflanishi.

Akkomodatsiya (lat. comodatio–moslashuv) – koʻz gavhari shaklining oʻzgarishi natijasida koʻzning turli masofadagi predmetlarni normal idrok qilishga moslashuvi (koʻz gavhari yaqindagi predmetlarni idrok qilganda dumaloq, uzoqdagi narsalarni idrok qilganda esa yassi shaklga kiradi). Akkomodatsiya hodisasi qoʻrquv funksiyasining toʻgʻri amalga oshirilishida muhim ahamiyatga egadir.

Akseleratsiya (lat. accelerare–tezlashtirmoq) – turli ilmiy asoslangan vositalardan foydalanib, shaxsning psixik rivojlanishi va faoliyati jarayonlarini tezlashtirish, jadallashtirish. Masalan, oʻquvchilarning bilimlarni oʻzlashtirish faoliyatini, bilish qobiliyatini jadallashtirish.

Aksioma (yunon. axioma–aniq ochiq narsa) – koʻpchilik tomonidan tan olingan, oʻz–oʻzidan maʼlum, isbot talab qilmaydigan haqiqat.

Akt (lat. Actus–xulq, hatti–xarakat) – psixologiyada akt deganda organizmning turli–tuman harakatlari masalan, sensor akt, ideomotor akt kabi.

Aktivlashtirish (lat. activus–faol, ishchan) – muayyan faoliyat jarayonida shaxsning aqli, hissiyoti va irodasini kuchaytirish, takomillashtirish orqali uning ish qobiliyatini oshirish. Masalan, dars jarayonida oʻquvchilarni aktivlashtirish. Aqliy faoliyatni aktivlashtirish – turli metodik usul va vositalardan foydalanish orqali aqliy jarayon (sezgi, idrok, xotira, hayol, tafakkur kabi)larning ish qobiliyatini oshirish natijasida bilim, koʻnikma va malakalarning samarali oʻzlashtirilishini, faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilishini taʼminlash.

Aktiv ish holati – kasb egasining oʻz ishiga faol kirishgan paytidagi gavda holati. Aktiv ish holati shaxsning yoshi, individual xususiyatlariga qarab ish kunining turli vaqtlariga, asosan dastlabki ikkinchi soatlariga toʻgʻri keladi.

Aktografiya – organizm harakatini grafik usulda yozib olish, ifodalash haqidagi taʼlimot.

Akumetr (yunon. akuo–eshitish, metran–oʻlchov) – eshitish qobiliyatini oʻlchaydigan asbob.

Aktsentlashtirish (lat. accentus–urgʻu) – mavjud tasavvurlarimizga asoslanib, yaxlit yangi obrazlar yaratishda, bu obrazlarning ayrim qismlarini boshqa qismlariga nisbatan haddan tashqari kattalashtirish yoki kichraytirishdan iborat hayol faoliyati. Masalan, masxara obrazlarining yaratilishi.

Aynan oʻxshashlik (lat. oʻxshash, bir xil) – birdaylik, tenglik, bir xillik; narsa yoki tushunchalarning bir–biriga oʻxshashligi.

Algazimetr (yunon. aigos–ogrik, metron–oʻlchov) – ogʻriq sezgilarini oʻlchaydigan maxsus asbob.

Alturizm (lat.–boshqa) – boshqalarga holisona gʻamxoʻrlik qilish, oʻz manfaatlaridan voz kechib, kishilarga yaxshilik qilish.

Ambivalentnost (lat.–har tomonlama kuchga ega) – kishining bir obʼektning oʻziga nisbatan bir vaqtning oʻzida paydo boʻladigan bir–biriga qarama–qarshi emotsional–irodaviy holati (mas., rashkda sevgi va nafratning ifodalanishi)

Anologiya (yunon. analogia–moslik, o'xshashlik) – narsa va hodisalarning bir–biriga o'xshash bo'lgan bazi belgilariga qarabgina hukm yuritishdan iborat xulosa chiqarish formasi; analogik usulda chiqarilgan xulosa chin bo'lishi ham, yolg'on bo'lishi ham mumkin. Anologiya ko'pincha yosh bolalarga xos tafakkur formasidir.

Animizm (lat. Anima–jon) – ibtidoiy odamlarning atrofidagi narsa va hodisalar haqidagi fangacha bo'lgan tasavvurlari; animistik tasavvurga ko'ra, har bir narsaning o'z ruhi, joni bor; tabiat kuchlari va hodisalarini jonlashtirishdan iborat diniy e'tiqod. Animizm O'rta Osiyo xalqlarida, ayniqsa o'zbek, tojik, qirg'iz dindorlarida «pir» ma'nosida ishlatiladi. Bunga ko'ra, har bir narsaning o'z «piri» bor. Masalan, dehqonchilikning piri, tegirmonning piri va boshqalar.

Anomaliya (yunon. anomalia–notekislik) – anatomik, fiziologik va psixik funksiyalarning normal o'smasligidan iborat patopsixologik nuhsan.

Anomal bolalar – anomatik, fiziologik va psixik jihatdan normal rivojlanmagan bolalar.

Antipatiya (yunon. antipatheia–ko'ngilsizlik, xushlamaslik, yoqtirmaslik) – biror narsaga yoki kimsaga nisbatan bo'lgan salbiy munosabatdan kelib chiqadigan va uni ifodalaydigan yoqimsiz hissiyot.

Antik psixologiya (lat. antiquus–ibtidoiy qadimgi) – psixologiya tarixining eramizdan avvalgi VII– asrlardagi qadimgi Gretsiya, Rim, qadimgi Xitoy va Hindistondagi psixika haqidagi ta'limotlarni o'rganuvchi bo'limi. Antik davrda psixologiya mustaqil fan bo'lmasdan, falsafaning bir qismi hisoblanardi, shuning uchun ham ruh haqidagi ta'limotlar ma'lum bir falsafiy fikrlar munosabati bilan bayon qilingan.

Antropoidlar (yunon. antropoides–odamsimon) – odamsimon maymunlar, odamning qadimgi ajdodlari; hozirgi vaqtda Antropoidlar qirilib bitgan.

Antropometriya (yunon. antropos–odam, metrio–o'lchayman) – odam tanasining ayrim qismlarini o'lchab, ularni oldindan belgilangan namunalarga taqqoslab o'rganishdan iborat antropologik va tibbiyot tekshirishi metodlaridan biri. Antropometrik tekshirishlar odamning etnogenezi va jismoniy rivojlanishini, shu jumladan, harbiy xizmatga chaqiruvchilarni jismoniy jihatdan xarakterlashda, sportchilarni tibbiyot jihatidan nazorat qilishda, dam olish uylari va sanatoriyalardagi davolash tadbirlarining yakunlarini hisobga olishda, sanoat uchun muhim masalalarni hal qilishda (oyoq kiyimi, ust–boshlar va maktab mebeli o'lchovlarini standartlashtirish maqsadlarida) alohida ahamiyatga egadir.

Antropomorfizm (yunon. antropos–odam, morpha–ko'rinish, forma) – hayvonot, o'simlik va ishonchsiz tabiat olamidagi hodisalar (stixiyalar) go'yoki tafakkur, hissiyot hamda iroda singari, insoniy xususiyatlarga egadir degan g'oyaning paydo bo'lishiga asos bo'lgan fangacha hukm surgan tasavvur; inson siymosini ilohiylashtiruvchi diniy tasavvur.

Antropologiya (yunon. antropos–odam, logos–tushuncha, ta'limot) – odamning biologik tabiatini atroflicha o'rganadigan fan; antropologiyaning vazifasi odamning organik mavjudotlar sistemasidagi mavqeini, kelib chiqishini, qadimgi va hozirgi morfologik tiplarini, morfologik, fiziologik, jinsiy hamda yosh xususiyatlarini o'rganishdan iboratdir.

Apatiya (yunon a–inkor yuklamasi, yatos–hissiyot) – shaxsning atrofdagi narsa va hodisalarga, kishilarga nisbatan passiv yoki befarq munosabatdan iborat psixopatologik holati.

Argument (lat. argumentum–dalil, isbot) – chinligi amalda tekshirilgan va isbotlangan, shuning uchun ham boshqa hukmlarning chin yoki yolg'onligini isbotlash uchun dalil sifatida keltiriladigan fikr.

Artikulyatsiya (lat.articulatio–dona–dona qilib, aniq talaffuz qilish) – nutq organlari (lablar, til, yumshoq tanglay, tovush naychalari)ning muayyan nutq tovushini talaffuz qilish uchun zarur bo'lgan faoliyati.

Asab sistemasi – hayvon va odam organizmining barcha funksiyalarini o'zaro hamda tashqi muhit bilan to'g'rilab, uyg'unlashtirib turuvchi organlar sistemasi. Asab sistemasi organizmning ichki muhitida ro'y beradigan o'zgarishlar va tashqi muhit ta'sirida qo'zg'alib, turli organlarga ta'sir etgan holda ularning faoliyatini kuchaytirib yoki susaytirib turadi.

Asket (zoxit) (yunon. askets – mashq qiluvchi) – «narigi dunyoga» ishonib, «jannat»ga umid bog'lab, «xudoga yetishish» yo'lida yorug' dunyoning, hayotning barcha lazzatlaridan voz kechgan taqvodor odam.

Assotsiativ psixologiya – assotsiatsiyalar tushunchasining asosiy bosh jarayoni deb hisoblovchi, ilmiy–g'oyaviy mohiyati jihatidan turlicha bo'lgan psixologik oqimlar yig'indisi.

Assotsiativ tormozlanish – muayyan shartli qo'zg'ovchi bilan unga xos malakalar o'rtasida hosil bo'lgan mustahkam shartli bog'lanish yoki assotsiatsiyalarning yangi malakalar hosil qilishga, salbiy ta'sir ko'rsatishdan iborat qonuniyat. Masalan, alfaviti ma'lum tartibda joylashgan mashinkada yozishga o'rgangan kishi alfaviti, boshqa tartibda bo'lgan mashinkada avvalgicha malaka bilan tez yoza olmaydi, harflarni almashtirib yuboradi, demak, bunda assotsiativ tormozlanish hodisasi ro'y beradi.

Astenik – biror psixopatologik sababga ko'ra, jismoniy yoki psixik tomondan ojiz bo'lib qolgan odam; xasta odam.

Axloq – muayyan ijtimoiy–iqtisodiy formatsiyada yashash uchun jamoatchilik tomonidan tarixan ishlab chiqilgan va qabul qilingan tartib-qoidalar yig'indisi. Har qanday jamiyatning o'z axloqi bor.

Axborot (lat. Informare – xabar silish) – ob'ektiv voqelikdagi narsa va hodisalarning, ichki organlarda hosil bo'lgan fiziologik, kimyoviy, mexanik o'zgarishlarning analizatorlarimizga ta'sir qilishi natijasida ongimizda hosil bo'ladigan har qanday xabar signali.

Aqidaparastlik – aqidalarga, diniy e'tiqodga asoslangan, ilmiy hamda progressiv narsalarga tubdan qarshi bo'lgan diniy tafakkur.

Akliy xarakterlar – shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli – tuman xarakterlaridir.

Affektiv komponent – ustanovka ob'ektiga nisbatan sub'ekt his qiladigan real hissiyotlar (simpatiya, antipatiya, loqaydlik kabi emotsional munosabatlar). Amaliy tafakkur – bevosita hayotda va harakatlarimiz mobaynida hosil bo'lgan fikrlarimizga asoslangan tafakkurimiz.

Adolat – (arabcha «adolat» odillik, to'g'rilik) – axloq va huquqning me'yoriy kategoriyalaridan biri bo'lib, mavjud ijtimoiy voqelik, inson mohiyatiga va huquqlariga mos yoki mos emasligini ajratishda mezon bo'lib xizmat qiladi.

Andisha – bu oqibatini o'ylab yoki yuz–xotir qilib, yuritilgan mulohaza ehtiyotkorlik hissidir.

Annotatsiya (lotincha annotatio – qayd) – qisqacha ta'rif bo'lib, u kitob, qo'lyozma mundarijasini va boshqa jihatlarini ochib beradi.

Arxiv metodi (AM) – bu kundalik qaydnomalarni va yozuvlarni, arxiv ma'lumotlarini mehnat, o'quv yoki ijodiy faoliyatni taxlil qiluvchi tadqiqot turi.

Asos – o'zaro bog'langan ba'zan esa bir–birining o'rnini bosadigan fikrlar (g'oyalar, modellar, algortmlar, mezonlar, tamoyillar va shu kabilar) qatori, masalan, davlat fikrlash asoslarida, agar yangi strategiyalar huddi shu maqsadlarga xizmat qilsa, har bir bosqich ichida strategiyalarni almashtirish mumkin.

Axloqiy tarbiya – qanday xatti–harakat qilish kerakligini aytibgina qolmay, balki nima uchun boshqacha emas, bevosita shunday harakat qilish kerakligini tushuntirishga intiladi.

Axloqiy tarbiya deganda shakllanayotgan, rivojlanayotgan, o'sib kelayotgan avlodda xulq–odob me'yorlariga mos keluvchi sifatlarning shakllanishi tushuniladi. Axloqiy tarbiyalangan shaxslarsiz yetuk kishilik jamiyati qurish mumkin emas. Axloqiy tarbiya shaxsning barkamol shakllanishida asosiy o'rinni egallaydi.

Aql – kishining o'z idroki, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida ma'naviy–insoniy nuqtai nazardan amal qilishdir.

Aqllilik – kishi o'z tafakkurini mustaqil ishlata olishi va undan faqat ezgu maqsadlarida foydalanishi. Agar aqlini yetarli ishlata olmasa yoki uni yovuz niyatlarda ishlatsa, unday odam aqlsiz hisoblanadi. Chunki kishi qilgan gunoh ishlar tez kunda o'ziga qaytadi. Buni bilmagan odam aqlsizdir. Yana boshqa adabiyotlarda «aqli» tushunchasi – aqli raso, miyali, aql bilan vujudga kelgan bilimdonlik, deb e'tirof etilgan. (Ziyomuhhammadov B. Komillikka eltuvchi kitob. T.: «Turon iqbol» 2006, 116-b).

Bolalar psixologiyasi – psixologiyaning turli yoshdagi bolalar psixik taraqqiyoti qonunlarini o'rganadigan maxsus sohasi. Bolalar psixologiyasi pedagogik psixologiya, bolalar fiziologiyasi, etika hamda estetika kabi fanlar bilan uzviy bog'liqdir. Bolalar psixologiyasining predmeti odam psixikasining ontogenetik rivojlanishi, shart–sharoitlari va sabablarini, ayrim psixik jarayonlarning bola faoliyatida shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlarini ilmiy tekshirishdan iboratdir.

Bilim – shaxsniig bilish faoliyati maxsuli; tabiat, jamiyat va inson tafakkuri hodisalari haqidagi to'g'ri tasavvur hamda tushunchalar sistemasidan iborat ong mazmuni.

Bilish jarayonlari – shunday psixik jarayonlarki, ular shaxsga o'zini o'rab turgan atrof–muhitning ma'lum va muhim xususiyatlarini anglashga, tushunishga va ular ustida o'ziga zarur xulosalar chiqarib, o'z xulq–atvorini rejalashtirishga imkon beradi.

Birlamchi guruh – shaxslararo o'zaro ta'sir «yuzma–yuz, bevosita» ro'y beradi.

Binokulyar idrok – narsa va hodisalarni, ularning fazoda tutgan o'rni, shakli, holati va bir–biriga nisbatan munosabatlarini ikki ko'z yordamida (monokulyar idrokdan farq qilib) idrok qilish.

Biografik metod – psixologiyaning ilmiy tekshirish metodlaridan biri bo'lib, uning yordamida shaxsning ijodiy xayoli, ijodiy tafakkuri, matonati, qobiliyat va iste'dodlari, talanti hamda geniyligi kabi yuksak aqliy, axloqiy, irodaviy sifatlari, individual xususiyatlari o'rganiladi va ilmiy tahlil qilinadi; muayyan shaxsning avtobiografiyasi, tutgan kundaliklari, xarakteristikasi, yozishmalari, boshqa kishilarning u haqidagi biografik ma'lumotlari, esdaliklari va xatlari biografik metodning o'rganish materiallari bo'lib xizmat qiladi. Biografik metod orqali, odatda, boshqa tekshirish metodlari yordamida aniqlash mumkin bo'lmagan ilmiy ma'lumotlar to'planadi.

Bixeviorizm (ingl. behavior – xulq) – psixologiyaning predmeti psixikani emas, balki inson va hayvonlar xulqini o'rganishdan iboratdir degan fikrni ilgari suruvchi va himoya qiluvchi oqim. Bixeviorizm xulq deganda, organizmning faqat tashqi muhitdagi qo'zg'ovga nisbatan qaytaradigan javob reaksiyalari (harakatlari) yig'indisini tushunadi. Demak, bixeviorizmga ko'ra, psixologiyaning vazifasi faqat tashqi stimul bilan unga qaytariladigan reaksiyalar o'rtasidagi teng ma'noli bog'lanishlarni aniqlashdan iboratdir, xolos.

Bixeviorizm ongning inson xulqidagi rolini va uni ilmiy jihatdan o'rganishni, tekshirishni inkor qiladi. Bixeviorizm alohida oqim sifatida XX asr boshlarida hayvonlar xulqini tekshirish natijalarida shakllangan bo'lib, uning asoschilari amerikalik psixologlar Uotson va Torndayklardir.

Bixeviorizm – E. Torndayk, D. Uotsonlar asos solgan oqim bo'lib, uning vakillari psixologiyaning predmeti nafaqat ong yoki nafaqat faoliyat, balki xulqdir, deb asosladi.

Bedor holat – bosh miya yarim sharlaridagi tegishli nerv markazlarining qo'zg'alishi bilan belgilanadigan uyqudan tashqarigi holat, ongli holat. Shaxs bedor holatdagina ma'lum bir faoliyat turini amalga oshira oladi.

Bilishga qiziqishlik – shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarni, ularning xususiyatlarini bilishga nisbatan aktiv munosabatidan iborat bo'lgan umumiy ijobiy xarakter xislati.

Behushlik (aqlsizlik holati) – haddan tashqari kuchli ta'sir natijasida turli psixik (ayniqsa emotsional) yoki psixopatologik sabablarga ko'ra aqlning qochishi.

Bixeviorizm (ingl. Behavior–xulq) – psixologiyaning predmeti psixikani emas, balki inson va hayvonlar xulqini o'rganishdan iboratdir.

Bashoratlar – bu aniqlab bo'lingan manbalar (asos sifatida shakllangan ma'lumot yoki axborot yoki narsa) asosida istiqbolida aniqlash lozim bo'lgan natija (narsa yoki ma'lumot) xususida oldindan fikr bildirish. Bashorat aniq reja emas.

Bag'rikenglik – bu qadimiy qadriyat bo'lib, o'zgalarning turmush tarzi, xulq–atvori, odatlari, his–tuyg'ulari, fikr mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lishdir.

Bunyodkor kishi – o’zida xalqparvarlik, tinchlik–ozodlik uchun kurashuvchi, bag’rikeng, do’stlik va birodarlikni ulug’lovchi hamda taraqqiyotni sevuvchi kishi.

Bunyodkorlik – kishida barpo etuvchilik hislatlarining majmui bo’lib, taraqqiyot yo’lidagi g’ayrat-shijoat na’munasini ko’rsata oladigan xalq baxt-saodati yo’lidagi harakatlar jarayoni.

Burch – kishining biror shaxs, oila, jamoa, el-yurt, vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha.

Verbal ta’sir – so’z va nutqimiz orqali ko’rsatadigan ta’sirimiz.

Vitalizm (lat. vitalis–hayotiy) – harakatning mohiyatini va tiriklik hodisalarini organizmdagi maxsus, moddiy bo’lmagan manbaning, ya’ni «hayotiy kuch»ning, «ruh»ning harakati bilan tushuntirishga urinadigan reaksion idealistik ta’limot.

Vaqt (zamon)ni idrok qilish – materiyaning yashash formasi – muayyan ob’ektiv vaqt borligini ongimizda bevosita aks ettirish. Vaqtni idrok qilish asosan ruhiy hodisalarimizning almashuvi tufayli ro’y beradi. Vaqtni idrok qilish idrok qilinayotgan vaqt birligining ob’ektiv mazmuniga hamda bizning unga bo’lgan munosabatimizga bog’liq. Masalan, bizning ehtiyoj va qiziqishlarimizga mos bo’lgan vaqt birligini idrok qilganimizda, vaqt sub’ektiv jihatdan tez idrok qilinadi va aksincha...

Vaqtincha unutish – avval idrok qilingan yoki esda qoldirilgan narsa va hodisalarning obrazlarini zarur paytda esga tushira olmasdan, keyinchalik, vaqt o’tgach, esga tushirishdan iborat unutish turi.

Vazminlik – shaxsning har qanday og’ir sharoitlarda ham o’zini tuta bilishi, qo’lga ola bilishidan iborat irodaviy xarakter xislati.

Voqelik – inson ongidan tashqari, unga bog’liq bo’lmagan holda mavjud bo’lgan ob’ektiv borliq; atrofimizdagi narsa va hodisalar, muhit, sharoit va boshqalar.

Garmonik rivojlanish (yunon, pagtesha–bog’liqlik, hamohanglik, muvofiqlik) – insondagi jismoniy, aqliy va ma’naviy kuchlarning o’zaro bir-birlariga muvofiq ravishda rivojlanishidan iborat bo’lgan kamolot darajasi.

Guruh – ma’lum ijtimoiy faoliyat maqsadlari asosida to’plangan, muloqot ehtiyojlari qondiriladigan insonlar uyushmasi.

Genetik psixologiya (yunon. Genetikos–tug’ilishga, kelib chiqishga oid) – psixologiyaning maxsus sohasi bo’lib, umuman, hayvonlar xulqi va inson psixikasining rivojlanish qonuniyatlarini o’rganadi; xususan psixik jarayonlarning o’zgarishini, turning biologik va evolyutsion taraqqiyoti (filo–genez), odamning paydo bo’lish tarixi, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti, har bir organizmning yoshga qarab yoki individual taraqqiyoti (ontogenez) jarayoni asosida o’rganadi.

Geshtalpsixologiya (nem. Cestalt–tasvir, yaxlit shakl, tarkib tuzilish)– psixik jarayonlarning yaxlit tuzilishi va dinamikligi jarayoniga asoslanuvchi, bu xususiyatlar azaldan psixikaga xosdir, ular psixika taraqqiyotining asosini tashkil qiladi, degan fikrni ilgari suruvchi oqimlardan biri.

Differentsial psixologiya – psixologiyaning shaxsning individual hamda muayyan guruhlariga oid bo’lgan psixologik farqlarini o’rganadigan maxsus sohasi.

Dogma (aqida) (yunon. dogma–o'zgarmaydigan, qotib qolgan narsa) – ob'ektiv sharoitlarning o'zgarishini hisobga olmasdan, shak-shubhasiz qabul qilinishi, bajarilishi zarur bo'lgan qoida.

Detcerebratsiya (lat. Olib tashlamoq, miya) – bu shunday metodki, unda bosh miyaning o'zakka oid qismining kesilishi natijasida oraliq miya va markaziy nerv sistemasining yuqori qismlari, pastki qismlaridan ajralib turadi. Detcerebratsiya qilingan hayvonlar muvozanatni ta'minlab turuvchi reflekslarni yo'qotadilar. Detcerebratsiyadan so'ng egiluvchi bo'g'inlar qisqaradi va natijada detcerebratsion regidlik vujudga keladi.

Lunatizm – (lat. Luna– y, lunaticus–aqlsiz, telba, jinni) – tushida yurib chiqish; «Lunatizm» degan nom oy nurining odamga «ta'siri» xaqidagi qadimgi eski tasavvurdan kelib chiqqan.

Ma'rifat – odamning tabiat, jamiyat va insonlar to'g'risidagi turli bilimlari, tushunchalari, ma'lumotlari majmui bo'lib, uning mazmuni bevosita shaxs dunyoqarashining mazmun – mohiyatini belgilaydi.

Mavxumlashtirish – alohida biror xususiyatni ajratib, boshqalaridan fikrni chalg'itish, ayrim xossani mavhumlashtirish.

Mayl – faqat mavjud sharoitdan norozi bo'lgan holda intilishning aniq maqsadini yoki ehtiyoj ob'ektini anglab yetmaslikdan iborat irodaviy bosqich. Mayl moddiy, ruhiy va fiziologik ehtiyoj, muhtojlikdan kelib chiqsa ham, lekin sababsiz zerikish, nimalarnidir yoki kimlarnidir, hali ularni to'liq anglab yetmay, qumsash hissi tariqasida kechiriladi.

Madaniyat (lat. cultuver–yerni ishlamoq, qayta ishlamoq) – tabiat hodisalaridan farqli o'laroq, insoniyatning jismoniy va aqliy mehnati tufayli yaratilgan hamma narsalar; jamiyatning uning moddiy hayot sharoitlari bilan belgilanadigan. Fan, san'at, texnika yutuqlarida ifodalanadigan g'oyaviy hamda ma'naviy taraqqiyot saviyasi.

«**Men**» **obrazi** – shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilishidan xosil bo'lgan obraz.

Pedagogik psixologiya – kishiga ta'lim va tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o'z predmeti deb biladi

Proektiv test – tekshiriluvchiga shunday topshiriq beriladiki, u topshiriqni bajarayotib, nimani aniqlayotganini, natijasi qanday bo'lishini oldindan bilmaydi.

Ruhlanish – biror narsadan yoki kishidan mamnun bo'lish natijasida, muayyan faoliyat turiga nisbatan kuchli intilishda ifodalanadigan ijobiy emotsional holat. Ruhlanish holatida shaxsning barcha jismoniy hamda psixik funksiyalari aktivlashadi: idrok, xotira va tafakkur sifatlari ortadi, harakatlar aniq, tez bajariladigan bo'ladi. Shuning uchun ham ruhlanish faoliyat maxsuldorligini ta'minlaydigan sub'ektiv faktorlardan biridir.

Rasmiy guruh – munosabatlar rasmiy me'yorlar va huquq burchlar tizimi bilan belgilangan guruh.

Referent guruh – shaxs uchun shunday odamlar guruhi bo'ladiki, ularning niyatlari, qiziqishlari, harakat me'yorlari, g'oya va fikrlariga ergashishga tayyor bo'ladi, harakatlaridan andoza oladi, ularga taqlid qiladi.

Reproduktiv tafakkur – ko'rgan, bilgan narsamizni aynan qanday bo'lsa, shundayligicha, o'zgarishsiz qaytarish va shu asosida fikrlash.

Realistik bahs – shaxsni o'rab turganlarning o'rinli va asosli bahslari, real samimiy munosabatlarining mahsuli bo'lib, shaxs bu munosabatlarni ilk yoshligidanoq holis qabul qilishga, o'z vaqtida to'g'rilashga o'rgatilgan bo'ladi.

Refleksiya – odamning o'zgalarga qarab, go'yoki o'zini oynada ko'rganday tasavvur qilishi.

Sevgi – bu nafaqat hissiyot, balki boshqalarni seva olish qobiliyati, sevimli bo'la olishdir. Sevgi – bu shunday tuyg'uki, u bir shaxsning ikkinchi shaxs ustidan mutloq ustunligi yoki afzalligini inkor etadi.

Simpatiya – o'zaro yoqtirib qolish – sevgining dastlabki bosqichi bo'lib, bunda asosan sevgi ob'ektining tashqi jozibasi rol o'ynaydi.

Sotsiometriya (lotincha «so cietas» – jamiyat va «metreo» – o'lchayman so'zlaridan olingan) – guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni o'lchashga qaratilgan texnika.

Suhbat – ikki va undan ortiq shaxslar o'rtasida savol–javob tariqasida sodir bo'ladigan bevosita fikr olishuv jarayondir; psixologiyaning ilmiy tekshirish metodlaridan biri.

Suhbat metodi – psixologiyaning ilmiy tekshirish metodlaridan biri bo'lib, tekshiruvchi va tekshiriluvchi o'rtasidagi savol–javob tariqasida ro'y beradi. Suhbat metodi tekshiruvchi tekshiriluvchiga o'rganiladigan muammoning tabiatiga muvofiq oldindan tayyorlab qo'yilgan savollar berib, ularga javoblar oladi. Masalan, suhbat metodi yordamida shaxsning qiziqishlari, dunyoqarashi, e'tiqodi, nutqiy xususiyatlari va boshqa sifatlari o'rganilishi mumkin. Suhbat jarayoni samimiy, erkin ravishda o'tishi, savollar atroflicha o'ylab tuzilgan bo'lishi, keyingi savollar oldingilarini taqozo qilishi kerak. Suhbat jarayoni qayt qilish borilib, taqlil qilinib, tegishli ilmiy–nazariy yoki ilmiy–amaliy xulosalar chiqariladi.

Sinchkovlik – bilishga qiziquvchanlikning biror narsaga kuchli intilishdan iborat bo'lgan qisqa muddatli turi. Sinchkovlik ba'zan arzimagan narsalarni biror g'arazgo'ylik maqsadida bilib olishga intilishda ham namoyon bo'ladi. Bunday bachkana sinchkovlik salbiy xarakter hislati hisoblanadi.

Tarbiya – shaxsning ongini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish hamda rivojlantirish jarayonidan iborat ijtimoiy hodisa.

Tarbiyalanganlilik (odoblilik) – shaxsning muayyan jamiyatga xos bo'lgan ijobiy xarakter xislatlariga ega bo'lishdan iborat sifati.

Ta'magirlik – boshqa birovlarining xisobidan manfaat ko'rishga doimiy intilishdan iborat salbiy xarakter xislati; T. Kupincha kishining nutqida ifodalanadi.

Tibbiyot psixologiyasi – tibbiyotning psixikaga bog'liq bo'lgan nazariy hamda amaliy masalalarini, bemorlar psixologiyasining kasallik diagnostikasi, uni davolash va oldini olish vazifalariga daxldor bo'lgan masalalarni o'rganuvchi fan. Tibbiyot psixologiyasi asosan har xil kasalliklarning psixik jihatidan namoyon bo'lishini, kasalliklarning paydo bo'lishiyo, o'tishi va ularning oldini olishda psixikaning rolini, har xil kasalliklarning psixikaga ta'sirini, psixika taraqqiyotining buzilishini, klinikadagi psixologik tadqiqotlarning tamoyil va metodlarini

o'rganadi. „..psixiatr, albatta, yo'q deganda, empirik psixolog bo'lishi zarur. Menga qolsa, shunday degan bo'lardim; agar shunday bo'lsa, u bizning empirik psixologiyasiz, faqat shartli reflekslar bilan qurollangan psixiatrlarimizga qaraganda anchagina foydali mavqeda bo'ladi”.

Tabiiy uyqu – turli usullar bilan hosil qilinadigan sun'iy uyqudan farq qiladigan tabiiy uyqu.

Triada – uch kishilik kichik guruh.

Ta'sirning tashabbuskori – bu shunday sherikki, unda ataylab ta'sir ko'rsatish maqsadi bo'ladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha ta'sir vositalaridan foydalanadi.

Figura – shunday narsaki, uni anglash, ajratish, ko'rish, eshitish va tuzish mumkin.

Fon – noaniqroq, umumiyroq narsa bo'lib, aniq ob'ektni ajratishga yordam beradi.

Faoliyat motivlari – har bir shaxsni u yoki bu faoliyat turi bilan shug'illanishga majbur qiladigan sabablar.

Fikrlash faoliyati – aql, fahm–farosat vositasida turli xil muammolar, masalalar va jumbog'larni yechishga qaratilgan faoliyat.

«Homo sapiens» – 40 000 yil oldin paydo bo'lgan «aqli zot».

Empirizm – bu yo'nalishning tarafdorlarining fikricha, yangi tug'ilgan bola, «top–toza taxta» (tabul rasa), unga hayot va undagi talablar o'zining qonuniyatlarini yozadi va bola ularga so'zsiz bo'ysunishga majbur.

O'yin – inson faoliyatining tarixan tarkib topgan, asosan taraqqiyotning bolalik davriga xos bo'lgan maxsus turi. O'yin orqali bolalar kattalarning hatti–harakatini, munosabatlarini, moddiy hamda sotsial voqelikni aks ettiradilar, dunyoni biladilar, aqliy, axloqiy hamda jismoniy tomondan rivojlanadilar.

O'yin – faoliyat turlaridan biri bo'lib, bu bolalarning kattalar faoliyatini, ularning ish–harakatlarini, kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aks ettirishda ifodalanadigan va tevarak–atrofdagi borliqni bilishga qaratilgan faoliyat.

O'xshashlik assotsiatsiyasi – bir biriga o'xshash belgilarga ega bo'lgan narsa va xodisalarning birortasini idrok yoki tasavvur qilish munosabati bilan ongimizda boshqalarning ham obrazlari ixtiyorsiz ravishda tiklanishidan iborat qonuniyat. Masalan, hasan va husanning birinchi idrok qilsak, ixtiyorsiz ravishda ikkinchisini eslaymiz.

Haqiqat – hukm va tushunchalarning bu hukm va tushunchalarda aks ettirilayotgan ob'ektlarga mos kelishi; narsa va hodisalarni, ob'ektiv olamning qonuniyatlarini, sabab–oqibat bog'lanishlarini ongimizda to'g'ri aks ettirishdan iborat psixologik kategoriya.

Xayol sifatlari – xayol jarayonida yaratilgan obrazlarning kengligi, mazmunliligi, kuchi va realligidan iborat individual farqlari. Bu sifatlarning barchasi bir–birlari bilan uzviy ravishda bog'liqdir.

Hasadgo'ylik – o'zga shaxslarning mavqei qobiliyati, iste'dodi, faoliyatdagi yutuqlari, mulki kabilarga nisbatan g'arazgo'ylik munosabatida ifodalanadigan salbiy xarakter xislati.

Harbiy psixologiya – psixologiyaning jang va harbiy mashq, strategiya va taktika masalalarini, komandir sostavi va bo'ysunuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni psixologik tahlil qilish hamda tegishli ilmiy xulosalar chiqarishdan iborat maxsus sohasi.

Kosmik psixologiya (yunon. dunyoviy, dunyo bo'shlig'iga oid)– psixologiyaning kosmik uchishlarning psixologik muammolarini o'rganish, ilmiy jihatdan tekshirish bilan shug'ullanadigan maxsus sohasi. Kosmik psixologiya asosan kosmik uchish faktorlarining kosmonavtlar psixikasi va faoliyatiga ta'sirini o'rganish, kosmik kema boshqaruv priborlari va boshqaruv richaglarini psixologik jihatdan baholash, kosmonavtlarni psixologik jihatdan tanlash va kosmik uchish sharoitlariga tayyorlash kabi masalalar bilan shug'ullanadi.

Shapko'rlik – ko'z to'r pardasidagi tayoqcha shaklidagi ko'ruv hujayralarining to'liq yoki qisman ishdan chiqishi munosabati bilan qosh qorayganda yoki kechasi yaxshi ko'rmaslik, ba'zan esa kechasi butunlay ko'rmaslikdan iborat ko'ruv sezgilarining nuhsioni. Tayoqchasimon ko'ruv hujayralari tovuq ko'zining to'r pardasida yaxshi rivojlanmagan, shuning uchun ham u kechasi yaxshi ko'rmaydi. Bu nuhsionning «kurinaya slepota» deb atalishining sababi ham shundan iboratdir.

Lakonizm (yunon. lakonicmos–qisqalik) – nutq jarayonida fikrni qisqa hamda aniq ifodalay bilishdan iborat aql sifati yoki xarakter xislati. Rivoyatlarga ko'ra, qadimgi lakoniyaliklar, spartaliklar aqlning ana shunday sifati bilan mashhur bo'lgan ekanlar.

Logopediya (yunon. logos–so'z, nutq, raideia–tarbiya) – defektologiyaning bolalar nutqining rivojlanishidan kamchiliklarni bartaraf qilish nazariyasi hamda praktikasi haqidagi bo'limi. Logopediya nutq kamchiliklarining sodir bo'lishining sabab va mexanizmlarini tekshiradi, ularni bartaraf qilishning **priitsip** va metodlarini ishlab chiqadi,

Pedagogik psixologiya – yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishning psixologik muammolarini o'rganuvchi maxsus sohasi. Pedagogik psixologiya pedagogikaning ilmiy asoslaridan birini tashkil qilib, pedagogika nazariyasi va praktikasini tashkil qilish uchun zarur bo'lgan, psixologiyaga oid fakt hamda qonuniyatlarni aniqlaydi.

Pediatrica (yunon. raidion – bola, iatreia – ta'limot) – bolalarning kasalliklari haqidagi fan.

Pertseptsiya (lat. regsertio–qabul qilish, idrok qilish) – ob'ektiv voqelikni sezgi organlarimiz orqali bevosita aks ettirish, appertseptsiyaga nisbatan «sof idrok».

Pertseptiv obraz – «sof idrok» obrazi.

Amaliy psixologiya – psixologiyaning fan va amaliyotning muayyan sohasi tomonidan ilgari surilgan konkret amaliy psixologik kamchiliklarni o'rganishga qaratilgan bir qancha mustaqil tarmoqlari yig'indisi.

Ta'lim psixologiyasi – pedagogik psixologiyaning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning qonuniyatlarini o'rganuvchi bo'limi.

O'smirlik psixologiyasi – yosh psixologiyasining o'smirlik yoshidagi bolalar rivojlanishi qonunlarini o'rganuvchi bo'limi; o'smirlarning psixologik xususiyatlari.

Kasb psixologiyasi – mehnat psixologiyasining kasblarning psixologik komponentlarini yoki muayyan kasbda ishlovchilarga nisbatan qo'yiladigan psixologik talablarni o'rganish hamda ilmiy analiz qilish bilan shug'ullanuvchi bo'limi.

Sport psixologiyasi – psixologiyaning jismoniy tarbiya hamda sportga doir bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish, rivojlantirish va tarbiyalashning qonuniyatlarini o'rganuvchi maxsus sohasi.

Ijodiyot psixologiyasi – psixologiyaning odam tomonidan yangi, original mahsul yaratish jarayonidagi psixologik qonuniyatlarni tekshiruvchi sohasi. Ijodiyot psixologiyasining predmeti fan, texnika va san'atda yangi ijtimoiy boylik yaratadigan ijodiy mehnat faoliyati (olim, kashfiyotchi, ratsionalizator, rassom mehnati) shuningdek, o'yin hamda o'qish faoliyatidagi ijod elementlaridir.

Mehnat psixologiyasi – psixologiyaning mehnat faoliyatining psixologik muammolarini o'rganuvchi sohasi. Bu muammolarga mehnat unumdorligini o'ttirishning psixologik shart-sharoitlari, mehnat va dam olish rejimi, kadrlarni ularning individual psixologik xususiyatlariga qarab tanlash va joy-joyiga qo'yish, ishlab chiqarish avariya va jaroxatining psixologik sabablari kabi masalalar kiradi.

Yigitlik yoshi psixologiyasi – yosh psixologiyasining ilk yoshlik davridagi yigit-qizlarning (16–18 yoshlar) psixik rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadigan bo'limi.

Psixonevrozlar (yunon. rsushe–jon, neuron–nerv) – markaziy nerv sistemasining funksional buzilishi (organik zararlanmagan holda) sababli kelib chiqadigan psixik kasalliklarning umumiy nomi.

Psixopatiya (yunon rsushe–jon, pathos–azoblanmoq) – psixik faoliyatning uyg'unsizligi, ayniqsa emotsional–iroda va mayl sohalaridagi uyg'unsizlik bilan sifatlanuvchi patologik formasi. Psixopatiya bu shaxsning alohida bir tuzilishi, patologik holatidir, lekin u o'smaydi. Psixopat shaxslarda aqlning tanqidiylik sifati saqlanib qolgan bo'ladi, ularning ba'zilar o'z xarakteridagi kamchiliklardan qattiq tashvishlanadi.

Psixopatologiya – psixik kasalliklar haqidagi umumiy ta'limot.

Psixoprofilaktika (yunon. rsushe–jon, prophylaktikos–saqlaydigan, qo'riqlaydigan) – kasalliklarning oldini olish, aholi salomatligini mustahkamlash, ish qobiliyatini saqlab qolish va uzoq umr ko'rishni ta'minlash maqsadida tashkil qilinadigan psixologik tadbirlar haqidagi ta'limot.

Psixoterapiya (yunon. rsushe–jon, therapeia–g'amxo'rlik, parvarish, davolash) – tibbiyot psixologiyasining bemorlarni psixik ta'sir ko'rsatish orqali davolash usullarini o'rganish va amalda tadbir qilish haqidagi bo'limi; bemorlarni tezroq sog'aytirish uchun qo'llaniladigan barcha psixik faktor va choralar yig'indisi; tashqi vaziyatni o'zgartirish, faqat muayyan bemor uchun o'ylab tuzilgan rejim, tibbiyot xodimlarining bemorga nisbatan ijobiy emotsional

munosabati. Psixoterapiyaning asosiy quroli soʻz, ya'ni tushuntirish, ishonitirish, gipnoz qilish va hokazolardir.

Psixotexnika – psixologiyaning asosan mehnat psixologiyasi amaliy masalalarini oʻrganuvchi sohasi. Psixotexnikaning asosiy muammolari kasb tanlash, haqida maslahat berish, mehnat jarayonlarini ratsionalizatsiya qilish, ishlab chiqarishda jarohat va avariya holatlarini kamaytirish, ishlab chiqarish ta'limi metodlarini mukammallashtirish kabilardan iborat. Psixotexnika sohasida muammolarni hal qilish uchun «test» metodidan keng foydalanilgan, bu orqali kishilarning qobiliyatidagi farqlarni ob'ektiv ravishda aniqlashga intilingan.

Psixofarmakologiya – odam nerv sistemasi va psixikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi dorivor yoki shifobaxsh preparatlar hadidagi ta'limot. Psixofarmakologiyaning vazifasi turli «psixotrop» moddalarning bioximik tarkibini oʻrganish va shu moddalar ta'sirida ro'y beradigan psixik o'zgarishlarning xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Psixofizika – sezgi organlari psixofiziologiyasidagi oqim. Uning vakillari qo'zg'ovchi kuchi bilan sezgi miqdori o'rtasidagi matematik nisbat qonunlarini belgilashga intilganlar. Masalan, fransuz fizigi P. Buger (1698–1758) ko'ruv sezgilaridagi farq chegarasi nisbiy miqdorining doimiylikini birinchi bo'lib aniqlagan. So'ngra bu tadqiqotni nemis fiziologi E. Veber (1795–1878) davom ettirib, xuddi shu faktni teri–harakat sezgilari va ko'z bilan chamalash orqali aniqladi. Nihoyat, nemis faylasufi va fizigi G. Fexner (1801–1887) sezgining miqdoriy xarakteristikasini o'rganishga cheksiz kichik miqdorlarni hisoblash usulini tadbqiq qilib, qo'zg'ovchi kuchi bilan sezgi miqdori o'rtasidagi logarifmik qiyoslash qonunini ochdi.

Psixofizikaning asosiy kamchiligi shundan iborat ediki, u murakkab psixik jarayonlarni, avval ularning fiziologik qonuniyatlarini o'rganmagan holda, fizik va psixik hodisalar o'rtasidagi faqat sof matematik nisbatlarni aniqlash yo'li bilangina o'rgandi.

Ritorika – notqlik nazariyasi; notqlik san'ati haqidagi fan, chiroyli, lekin mazmunan kambag'al nutq.

Rotatsizm (yunon. gho–harflari–«r») – «r» tovushini talaffuz qila olmaslikdan iborat nutq kamchiligi.

Tavtologiya (yunon. Taito–o'shaning o'zi, logos–soʻz, g'oya) – muayyan narsa yoki hodisani, uning muhim belgilarini ko'rsatish orqali emas, balki uning o'zi orqali ta'riflashdan iborat fikrlash jarayonidagi mantiqiy xato. Masalan, «qobiliyat kishining biror faoliyat turiga qobiliyatli bo'lishidir» **qabilidagi** tarif.

Takt (odob) (lat. tactus–tegish, sezish) – atrofda kishilar bilan muomala va munosabatda bo'lishda me'yor hissiga rioya qilishdan iborat axloq normasi. Takt shaxsning aqliy hamda axloqiy kamolot darajasini ko'rsatuvchi mezon hisoblanadi.

Taktil sezgilar – teri sezgilarining biror narsaning badanga tekkanini, bosilganini, tebranishini aks ettirishdan iborat turi.

Taktil retseptorlar – terining yuza qismida joylashib, badanga biror narsaning tekkanini qabul qilib oluvchi retseptorlar. Taktil retseptorlar ayniqsa barmoq uchlarida, til uchida, kaftning orqasida zich joylashgan. Shuning uchun ham badanning shu qismlari sezgirdir.

Odoblilik – atrofdagi kishilar bilan muomala va munosabatda bo'lishda me'yor hissiga rioya qilishdan iborat ijobiy xarakter hislati yoki odat.

Tumor (fr. talisman–tumor) – xurofiy tasavvur, tushuncha va e'tiqodga ko'ra, kishini har qanday «balo-qazodan» asraydigan, unga baxt keltiradigan narsa.

Taxistoskop (yunon. Tashus–tez, skopeo–ko'raman, qarayman taxistoskop; tekshiriluvchiga o'ta qisqa vaqt birligi ichida (000,1 sekundgacha) maqsadga muvofiq tuzilgan turli so'zlar, harflar, rasm va rahamlarni ko'rsatish orqali idrok, diqqat va xotiraning ba'zi xususiyatlarini tekshiradigan asbob.

Ijodiy xayol – mavjud tasavvurlarimizga asoslanib, biz avval idrok qilmagan, turmush tajribamizda uchramagan narsa va hodisalarning yangi obrazlarini yaratishdan iborat xayol turi. Masalan, kosmik kema loyihasining birinchi marta yaratilishi ijodiy xayolning mahsulidir.

Fanatizm (lat. fanaticus – o'tmaslashgan, to'mtoqlashgan) – o'z sub'ektiv qarashlariga haddan tashqari berilib, boshqalarni e'tiqodlariga chidab tura olmaslikdan iborat salbiy xislat; o'z e'tiqodiga ortiqcha hirs qo'yish.

Fantazyor (yunon. phantasia – tasavvur, hayol) – hayolparast, amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan hayol obrazlari bilan yashovchi odam.

Fiziologik psixologiya – aniq fiziologik metodlardan foydalanib, fiziologiya bilan psixologiya o'rtasidagi yaqin muammolarni o'rganuvchi psixologik tekshirishlar sohasi. Fiziologik psixologiyaning ma'lumotlari psixik hodisalarning moddiy asoslarini ochishga yordam beradi. Nemis faylasufi va psixologi. V. Vundt o'zining «Fiziologik psixologiya» (1874) nomli asari bilan fiziologik psixologiyaga asos solgan.

Fizionomiya (yunon. rhus1s–tabiat, **gnomon** biladigan) – kishining yuz tuzilishi, ifodalari; odam shaxsini belgilab beruvchi xususiyatlar yig'indisi; qiyofa.

Filogeneza (yunon. phyfe–qabila, urug', tur, genesis – hosil bo'lish, kelib chiqish) – muayyan tirik organizm turining yerda hayot paydo bo'lgandan keyingi evolyutsion taraqqiyot jarayoni.

Flyuid (lat. fluidus–oqadigan) – spirittlarning xurofiy, mistik tasavvuriga ko'ra, ba'zi kishilar tomonidan tarqatiladigan (chiqadigan) allaqanday «psixik tok». Fobiya (yunon. rhodos–qo'rqinch) – ma'lum bir sharoitlarda asossiz ravishda qo'rqish va tashvishlikshdan iborat, yengish mumkin bo'lmagan muttasil psixopatologik holat. Masalan, agarafobiya maydondan, katta ko'chadan qo'rqish; kaustrofobiya – eshigini berkitib, uyda o'tirishdan qo'rqish; Monofobiya–yakka qolishdan qo'rqish; atropofobiya– ko'pchilikdan, xaloyiqdan qo'rqish; nazofobiya–kasal bo'lib qolishdan qo'rqish, eyrotrofobiya–ko'pchilik oldida qizarib qolishdan qo'rqish va hokazo.

Fokus (lat. fokus - o'rta, markaz) – tomoshabinlarga g'ayri tabiiy bo'lib ko'rinadigan, ularni hayratda qoldiradigan, chaqqonlik va epchillik bilan tez bajariladigan harakat usuli. Fokus qo'lning harakat qilishiga, maxsus moslamalarga, ba'zan esa tomoshabinlarga ma'lum bo'lmagan fizik, ximik va psixologik hodisalarga asoslanadi.

Fonasteniya (yunon. rhono-ovoz, tovush, astenia–ojizlik, holsizlik) – tovush apparatlari butun va sog' bo'lgan holda tovushning qisman yoki to'liq yo'qolishidan iborat kasallik.

Fonatsiya – nafas yo'lidan chiqayotgan havo ta'sirida tovush naychalarining tebranishi natijasida nutq tovushlarining hosil bo'lishi; nutq tovushlarini talaffuz etish.

Odam – inson, yerdagi tirik organizmlar taraqqiyotining eng yuksak bosqichini tashkil qiluvchi, ishlab chiqarish qurollarini ishlab chiqarish va ulardan borliqni o'zgartirishda foydalanish qobiliyatiga ega bo'lgan ijtimoiy mavjudot; ong egasi.

Odamgarchilik – insongarchilik; o'zaro muomala va munosabatlarda insonga xos bo'lgan barcha ijobiy fazilatlarga rioya qilishdan iborat xarakter xislati.

Afsungarlik (jodugarlik) – arvohlarga insu-jinslarga, jin-parilarga topinishdan iborat bo'lgan ibtidoiy din formasi.

Shizofreniya (yunon. Sshizo – bo'lmoq, maydalamoq, rhgen – aql) –aql, hissiyot va irodaning pasayishidan iborat, aniq sabablari hali aniqlanmagan psixik kasallik.

Xayolning kengligi – xayol jarayonida yaratilgan obrazlarning tadbiq qilinishi doirasi bilan belgilanadigan xayol sifati. Xayolning kengligi shaxsning bilim darajasi va turmush tajribasiga bog'liqdir.

Maktab yoshi – ta'lim–tarbiyasi sistemasi bo'yicha bolalarning maktab ta'limi vaqtidagi hayoti va rivojlanishi davri. Bu davr: kichik maktab yoshi (7 yoshdan 11 yoshgacha), o'smirlik yoshi (12 yoshdan 16 yoshgacha), ilk yigitlik yoshi (16 yoshdan 18 yoshgacha) bosqichlariga bo'linadi. Bu taraqqiyot bosqichlarining har biri o'zining anatomik–fiziologik va psixologik xususiyatlari bilan farqlanadi.

Shok – (ingl. shosk – zarba) – qattiq **ruhiy bki** jismoniy ta'sirlardan zarba olish natijasida organizmning og'ir lat yeyishi, shikastlanishi. Shok holatida qon aylanishi, nafas olish, modda almashinuvi buziladi, ba'zan ong tormozlanadi, hushsizlanadi va hokazo.

Evristika (yunon. Heurisko –topaman) – «haqiqatni topish san'ati»; nazariy tadqiqotlardagi mantiqiy usullar va metodik qoidalar sistemasi. Egoizm (lat. ego – men) – (xudbinlik); o'z shaxsiy manfaatlarini jamiyat, kollektiv manfaatlaridan yuqori qo'yishga kuchli intilishda ifodalanadigan salbiy xarakter xislati.

Eydetizm – (yunon. eidos – obraz) – avval idrok qilingan narsa va hodisalarning obrazlarini ongda aniq, to'liq va yorqin holda uzoq vaqt saqlab qola olish qobiliyatida ifodalaydigan ruhiy hodisa; idrok obrazlaridan deyarli farq qilmaydigan tasavvur sifati.

Eydetik obrazlar – favqulodda jonliligi va mutlaqo to'liqligi bilan sifatlanadigan yaqqol tasavvur obrazlari.

Epilepsiya (yunon. epilpsia – hujum qilaman) – davriy ravishda takrorlanadigan tutqanoqlanib hushsizlanish yoki qisqa muddatli psixik buzilish; ongning qorong'ilanishi bilan xarakterlanadigan nerv–psixik kasallik.

INSON AQLIY KAMOLATI HAQIDA DONISHMAND ALLOMALAR FIKRLARI.

Kishikim qilsa olimlarga ta'zim,
Andoqki qilur payg'ambarga ta'zim.

Alisher Navoiy.

To'g'ri yo'lning ochg'usi bilimdir,
Ilming bilan kamtar bo'l.
Ilmingni xor qilguchi bo'lma.
Xiradmandlar bilan hamsuhbat
bo'lishga intil,
Dinni ilm bilan asra.

Moturudiy

Er yuzi dashtu sahro bo'lsa, gulzori ilm,
Sahnai olamni bo'lmoqda namudori ilm.
Ilmu fan birla qurollanmoqda sardori ilm,
Ilm o'qi, hech bir jonga yetkurmaydi ozor ilm.
Oraziy

Olim kishi so'zidan olgil o'git,
Yaxshi so'zlar ta'siri dilga singar.
Mahmud Qoshg'ariy

Olim kishini ezgu tutib so'zin eshit,
Hunarini o'rganibon amal qilg'il.
Mahmud Qoshg'ariy

Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidurlar.
Abdulla Avloniy

Ilmni kim vositai joh etgan,
O'zini-yu xalqini gumroh etar.
Alisher Navoiy

Hunar ado bo'lmas boylikdir.
Abay.

Kishining olijanoblighi–dinidir, uning samimiyligi-aqlidir,
uning obro'yi– xulqidir.
Jomiy

Oltin topginu o'rgangin hunar,
Hunarning oldida xasdir oltin – zar.
Jomiy

Bilim – qaytarish va takrorlash mevasidir.
Beruniy

Insonning qimmatini emas siymu zar,
Insonning qimmatini ilm ham hunar
Bedil

To fazlu hunarga erishmay inson,
Unga baxt eshigi ochilmas oson.
Bedil

Odamdan yuqori turarkan olam,
Bilim oshirmoqqa muhtojdir odam.
Abu Abdullo Rudakiy

Odamlar aqlining chirog'i bilim,
Balodan saqlashning yarog'i bilim
Abu Abdullo Rudakiy

Ilmdan yaxshiroq xazina bo'lmas,
Qo'lingdan kelguncha tera olsang bas.
Abu Abdullo Rudakiy

Birlik yo'q ekan baraka bo'lmaydi.
Abay

Insonparvarlikni va mardlikni Alloh ham, xalq ham ulug'laydi.
Amir Temur

Davlatni boshqarish asosi – adolatdir.
Amir Temur

Yaxshi xulq eng yaxshi narsa dunyoda,
Xalq sevar barchadan shuni ziyoda.
Farididdin Attor

Ilm madadi gar esa sendan yiroq,
Kecha qorong'usida sen bechiroq
Xisrav Dehlaviy

Bu gulshan ichra yo'qdir, bah guliga sabot,
Ajab saodat erur chiqsa yaxshiliq birla ot.

Alisher Navoiy

Jahon ilmiki bu kun menga yod erur,
Anga barcha jahl aqli ustod erur.

Alisher Navoiy

Er kishiga zebu ziynat hikmat va donishdur.

Alisher Navoiy

Xushmuomalalik insoniyat boqining mevali daraxti va daraxtining shirin
mevasidir.

Alisher Navoiy

Ish agar har qancha mushkul bo'lsa ham, uni oson tutsang oson bo'lg'usidir.

Alisher Navoiy

Birov sening aybingni aytsa, e'tiroz bildirma, chunki u sening ko'zguingdir.
Ko'zgu xira bo'lsa, boshqa seni ko'rsatmay qo'yadi.

Alisher Navoiy

Bu dunyoda doimiy gullaydigan gul yo'q, haqiqiy baxt esa, yaxshilik bilan nom
chiqarishidadir.

Alisher Navoiy

Insonni nasl–nasab emas,
Balki hayo va adab sharaflil qiladi.

Alisher Navoiy

Odamlarning haqi bir siniq igna bo'lsa ham,
U sening bag'ringga olmos bo'lib sanchilgusidir.

Alisher Navoiy

Til ko'ngil xazinasining qulfi,
So'z esa u xazinaning kalitidir.

Alisher Navoiy

Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz.

Alisher Navoiy

Biliming osmonga yetgan bo'lsa ham,
Boshqalar ilmiga quloq sol har dam

Abu Shukur Balxiy

Shubha yo'q, ilmdan tirikdir inson,
Mashaqqat – mehnatni yengadi oson.
Abulqosim Firdavsiy

Ilmdan bir shu'la dilga tushgan on,
Shunda bilursankim, ilm bepoyon.
Bilimsiz bilan ishga kirishsang,
Foydasi bo'lmaydi qancha tirishsang.
Asadiy Tusiy

Bilimdon shod bo'lur doim dilu jon,
Bilimsiz odamlar hayron, sargardon.
Nosir Xisrav

Bilim mezonida so'zing o'lchab ol,
Ilmsiz gap bari shamoldir, shamol.
Sadiy Sheroziy

Baxt belgisi ilm va aqlidir.
Maxmud Qashg'ariy

Aql – aqldan quvvat oladi
Jamoliddin Rumiy

Jonsiz tananing bormi qimmatiq
Odam tanadir, qonidir maktab.
Sadriddin Ayniy

Ko'ngillarning sururi ilmdandir,
Ko'rar ko'zlarning nuri ilmdandir.
Furqat

Kunim kundan-kunga bo'lsin desang xush,
Ilm payidan bo'l borida es-hush.
Har varaqni o'qib chiqqanda mudom,
Harakat hil, tushun barisini tamom.
Bo'yra to'quvchikim, to'qisa a'lo,
Yomon kuloqdo'zdan bo'ladi a'lo!
Nizomiy Ganjaviy

XULOSA

Ilm-fan va texnika-texnologiyalar sohasida erishilayotgan so'nggi yutuqlar bo'lajak mutaxassislar malakaviy darajasiga nisbatan bir qator talablarni qo'ymoqda. Ushbu talablardan biri bo'lajak mutaxassisni o'z sohasi bo'yicha yangiliklarni o'z vaqtida anglay oladigan qilib, tarbiyalashdan iboratdir.

Inson kamoloti va uning yuksalishida yoshlarimizning ma'naviy jihatdan tarbiyalanganligi va ilmiy dunyoqarashi kengligi muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ham talabalarimiz dunyoqarashini shakllantirish va yuksaltirishda ular ongiga millat, Ona tuproq, Ona Vatan, xalq va uning tarixiy ildizlari asosidagi boy milliy-ma'naviy merosimiz haqidagi ma'lumotlarni ta'lim-tarbiyaning barcha jabhalariga singdirib borish lozim, aks holda ular orasida «ma'naviy bemorlar» uchrab qolishi mumkin va ularni tarbiyalash esa ta'lim-tarbiya muassasalari oldiga yanada muhimroq vazifalarni qo'yadi, chunki bu «ma'naviy bemorlar» bor joyda g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'yilgan bo'ladi. Shuning bilan birga talabalar ongida millat, miliy axloq, milliy g'urur, milliy tarbiya, milliy salohiyat, Vatan tuyg'usi, Vatan qayg'usi, Vatan sog'inchi va shu kabi tushunchalarni shakllantirish, ularning milliy dunyoqarashini kengaytirishga asosiy omillardan biridir. Bunda inson kamoloti uchun milliy tarbiyamizga xos bo'lgan mehr-oqibat, hurmat-izzat, muruvvat, or-nomus, bag'rikenglik va shu kabilardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik institutlarning talabalari psixologiyada psixikaning haqiqatdan aks ettirishi, mohiyati ularning reflektorlik asosi haqidagi asosiy qoidalarni o'zlashtirib olishlari, ularda ilmiy dunyoqarashning shakllanishining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Talabalar zamonaviy psixologiya kategoriyalarini bilmay, bugungi kungacha kashf etilgan psixologik, mexanizmlarni va boshqqa narsalarni bilmay bir-birini to'ldirib kelgan turli psixologik maktab va psixologlarning nazariyalari va qarashlari haqidagi ma'lumotlarni tanqidiy qabul qilish va ularning fan tarixida tutgan o'rnini to'g'ri baholash, fanning rivojlanishiga qo'shgan hissalarini bilib olish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar. Darhaqiqat, talabalarda dunyoqarashni shakllantirish bo'lajak o'qituvchi shaxsining manaviy hislatlarni tarbiyalash bilan uzviy bog'liqdir.

Inson kamoloti va uning yuksalishida yoshlarimizning ma'naviy jihatdan tarbiyalanganligi va ilmiy dunyoqarashi kengligi muhim rol o'ynaydi.

Ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning uzluksiz ketma-ketligi va undan amaliyotda foydalanish natijalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy dunyoqarashini yuksaltirish uzluksizligining axborotli ta'minotini yaratishni taqozo qildi va uni amaliyotga keng joriy etish orqali talabalarning ilmiy dunyoqarashi uzluksiz ravishda yuksaltirib borishga erishildi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashga biz tavsiya etgan uslubiy qo'llanma ta'limga keng joriy etish tizimi orqali yondashilsa, kutilgan pedagogik psixologik samaraga erishishni kafolatlaydi, deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Davletshin M.G. «Umumiy psixologiya» T-2000y.
2. Nemov R.S. «Psixologiya» T.1.M. 1998y.
3. Gamezo A. «Atlas po psixologii» Moskva 2001.
4. Karimova V.M. «Psixologiya» T.Shark 2002y.
5. Goziev Yo.Yo. «Umumiy psixologiya» I-II tom.Toshkent-2002y.
6. Petrovskiy I.V. «Umumiy psixologiya» «O'qituvchi». 1992y.
7. Psixologiya V.Karimova. Toshkent,2002y.
8. Nishonova Z.T, Oliy maktab psixologiyasi, Toshkent, 2003y.
9. Goziev M. Umumiy psixologiya, Toshkent, 2004y.
- 10.Berdiev G., Ibragimov A., Raxbar psixologiyasi, T. 2005y.
- 11.Kto yest kto v mire, Moskva-2005y.
- 12.Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi.T, 2006y.
- 13.F.I.Xaydarov, N.I.Halilova. Psixologiya fanlarining o'quv metodikasi. T-2006y.
- 14.Boymurodov N. Amaliy psixologiya. T-2008y.
- 15.X.A.To'raqulov. Ilmiy ijodiyot metodologiyasi. T-2006y.
- 16.J.Hasanboyev, O.Hasanboyeva, X.A.To'raqulov, M.Haydarov. Pedagogika fanidan izzohli lug'at. T-2008y.
- 17.Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b.
- 18.Islom entsiklopediyasi. – Toshkent: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashri, 2004. – 157 b.
- 19.Musa Halilov, Sharif Fayzullayev. Umumiy psixologiya I qism. Samarqand 2002 y.
20. A LPetrovskiy A.V. Lichnost, deyatelnost, kollektiv. M-1982y.
- 21.M.Davletshin va boshqalar. Psixologiya: izoxli lug'at. T-1998y.
- 22.V.Karimova. Ijtimoiy psixologiya. T-1994y.
- 23.Q.Turg'unov. Psixologiya terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. T-1975y.

MUNDARIJA

1. Kirish.....	3
2. Inson ruhiy olami jarayonlarining mazmun-mohiyati	4-8
3. Shaxs dunyoqarashining yuksalish bosqichlari.....	9-15
4. Inson intellektual kamolati bosqichlari	15-23
5. Talabalarni bilish jarayoniga tayyorlashga didaktik materiallar.....	24-35
6. Talabalar ongida bilish jarayoni haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga oid atamalar mazmun-mohiyati.....	36-51
7. Inson aqli kamolati haqida donishmand allomalar fikrlari.....	52-55
8. Xotima.....	56
9. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	57

Shartli bosma tabog'I 3,0. Nashr bosma tabog'i 5,75.